

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

Yusupov Sanjar Maqsudovichning

5110800 Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

***BITIRUV MALAKAVIY
ISHI***

Mavzu: "To'maris" afsonasi asosida ilyustratsiyalar ishlash

Ilmiy rahbar: "TS va MG" kafedrası o'qituvchisi
Karimov Hamidbek Otaxonovich

Urganch 2015 yil



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA
VA SAN'AT FAKULTETI**



YUSUPOV SANJAR MAQSUDOVICHNING

**5110800 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: "To'maris" afsonasi asosida ilyustratsiyalar ishlash

Ilmiy rahbar: "TS va MG" kafedrası o'qituvchisi Karimov H.O

Urganch 2015 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. “TO`MARIS” AFSONASI VA UNGA ISHLANGAN ILLYUS- TRATIV MATERIALLAR ORQALI O`QUVCHILARNING BADIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH	
1.1-§. Grafikada kompozitsiya xususiyatlari va illyustratsiya tushunchasi.....	8
1.2-§. Afsona va tarixiy mavzularning grafikachi rassomlar ijodida aks etishi....	16
2-BOB. TASVIRIY SAN`AT MASHG`ULOTLARIDA “TO`MARIS” AFSONASIGA ILLYUSTRATSIYALAR ISHLASH	
2.1-§. “To`maris” afsonasi voqealarini tahlil qilish orqali o`quvchilarning ijodiy tasavvurlarini o`stirish.....	24
2.2-§. “To`maris” afsonasini tahlil qilish orqali undagi asosiy obrazlarga ilyustratsiya ishlash.....	30
2.2-§. 6-sinf tasviriy san`at mashg`ulotida “Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash” mavzusini noan`anaviy uslubda o`qitish.....	40
Xulosa	49
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	51
Ilyustratsiyalar.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Xalq dahosining nodir yodgorliklari sifatida asrlar osha yashab kelayotgan afsona va rivoyatlar o'zining shakllanish davridan boshlab hozirgacha xalqimizning ma'naviy olamini munavvar qilishda o'ziga xos mash'allik vazifasini bajarib kelgan. Darvoqe, yozma adabiyot hali shakllanib ulgurmagan va boshqa madaniy dam olish vositalari paydo bo'lmagan bir paytlarda xalq og'zaki ijodining roli nihoyatda katta bo'lganligi o'z-o'zidan ma'lum. Xalq uchun esa ma'naviy oziqlanish hamisha hayotiy ehtiyoj bo'lib kelgan.

Hayotda yuz beradigan voqea-hodisalarning nihoyatda rang-barangligi va kishilarning o'zaro munosabatidagi turli-tumanlik asrlar davomida badiiy tafakkur mahsuli o'laroq tug'ilgan asarlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Natijada, og'zaki adabiyotning bir janriga mansub bo'lgan asarlari orasida ham tarmoqlanish yuzaga kelgan va afsona va rivoyatlarda ichki tafovutlar paydo bo'la boshlagan.

Shunday tarixiy qahramonlik asarlaridan "To'maris" afsonasi bugungi kunda kelajak avlodlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning biri sifatida vazifa bajarmoqda. Tarixiy afsonaviy asar zamiridagi qahramonlik, do'stlik, adolat tushunchalari va ona Vatanga, vatandoshlarga muhabbat tuyg'usi, mustaqillik davridagi milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari bilan hamohang bo'lganligi uchun ham mazkur tarixiy afsonaga e'tibor yanada kuchaymoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tarixiy asar «To'maris» ga bag'ishlangan o'nlab tadqiqotlar yaratildi: tadqiqot, risola va maqolalar e'lon qilindi. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Ushbu tadqiqotlarda afsonaning g'oyaviy-badiiy jihatlarini, qahramonlar xarakteriga xos bo'lgan mardlik va vatanparvarlik, do'stlik va salbiy qahramonlargagi illatli xususiyatlar ochib berilmoqda.

Afsonaning xalq ma'naviyati tarixidagi o'rni va roli xususidagi mulohazalar o'rta tashlanmoqda. Asarni o'qish va o'rganish avlodlar uchun ham ma'rifiy, ham ma'naviy-estetik ahamiyat kasb etadi. Alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz ko'p millatli davlatdir. Respublikamiz maktablarida mamlakatda istiqomat

qilayotgan 100 ga yaqin millat va elatlarning bolalari bir ota-ona farzandlaridek yonma-yon o'tirishib ta'lim olishmoqda.

Ushbu do'stona vaziyatni yanada mustahkamlash, o'tmish va tarixiy qadriyatlarga o'zaro hurmatni shakllantirishda «To'maris» tarixiy afsonasi ham o'ziga xos vazifa bajarishiga hech qanday shak-shubha yo'q.

Shunday ekan, ushbu afsonani tasviriy san'at sohasida tahlil qilib, unga grafik illyustratsiyalar ishlash ham katta ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida «To'maris» afsonasiga illyustratsiyalar ishlash va o'zbek rassomlarining ijodi bilan yaqindan tanishtirish hamda shu san'at turiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish, o'quvchilarni nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish, ko'nikma va malakasini shakllantirishga, rivojlantirishga bo'lgan zaruriyat bilan belgilanadi.

Shunday qilib, bitiruv malakaviy ishining mavzusini: **«To'maris afsonasi asosida illyustratsiyalar ishlash»** deb tanladik. Yuqorida barcha fikr va mulohazalarni bir joyga jamlab, bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi va mazmunini belgilab oldik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

- *tasviriy san'atning tarixiy rivoji haqidagi bilimlarga ega bo'lish;*
- *tasviriy san'at mashg'ulotlarida rassomlarning ijodiy faoliyati bilan tanishish va ular yaratgan asarlarini o'rganish, tahlil qila bilish;*
- *mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirish;*
- *o'quvchilarning tasviriy san'at faniga bo'lgan muhabbatini uyg'otish;*
- *o'quvchilarning nazariy va malakaviy bilimlarini mustahkamlash;*
- *o'quvchilarning olgan bilim va malakalari asosida kompozitsiya tuzish va uni amalda bajarishga o'rgatish;*

Tadqiqot predmeti: Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fani tarkibi va mazmuni, hamda uni o'qitish metodlari.

Tadqiqot obyekti: Umumta'lim maktablarining tasviriy san'at mashg'ulotlarida «To'maris» afsonasiga illyustratsiyalar ishlashni o'rgatishda

o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoni. (amaliy mashg'ulotlar).

Tadqiqot metodlari:

- mavzuga doir pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- pedagogik texnologiyalar, pedagogika, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi va ilmiy maqolalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish;
- ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash;
- pedagogik kuzatish;

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

Bitiruv malakaviy ish mavzusiga quyidagi maqsad va vazifalarini qo'yiladi.

- kitob grafikasi san'atining rivojlanishi;
- grafikada kompozitsiya xususiyatlari va illyustratsiya tushunchasi;
- grafikachi rassomlar ijodida afsona va rivoyatlar va tarixiy mavzularning aks etishi;
- "To'maris" tarixiy afsonasining yaratilish tarixi, uning g'oyasi va mohiyati;
- o'quvchilarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani shakllantirishda "To'maris" tarixiy afsonasining ahamiyati;
- "To'maris" afsonasini tahlil qilish orqali undagi asosiy obrazlarga illyustratsiya ishlash;
- Tasviriy san'at mashg'ulotida "Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash" mavzusini noan'anaviy uslubda o'tish kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Tasviriy san'at mashg'ulotlarida afsonalarga illyustratsiyalar ishlash orqali o'quvchilar predmetlarni tasvirlashda shakl, hajm va konstruktsiya, perspektiva va shu asosda uning xususiyatlarini tez ilg'ab olish, proportsiya, narsaning yorug'-soya qismlari va undagi ton munosabatlarini aniqlash kabi nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo'lishadi. Shuningdek, mashg'ulotda o'quvchilarning xotirasi, tasavvuri, ijodiy qobiliyati, bilimi, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.

Bitiruv-malakaviy ishning tuzilishi va hajmi:

Bitiruv–malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning hajmi 54 sahifani tashkil etadi.

Birinchi bobda “To'maris” afsonasi va unga ishlangan illyustrativ materiallar orqali o'quvchilarning badiiy madaniyatini shakllantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ikkinchi bobda tasviriy san'at mashg'ulotlarida “To'maris” afsonasiga illyustratsiyalar ishlash metodikasi ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili. Bitiruv malakaviy ishining nazariy qismini yoritishda bir qancha adabiyotlardan foydalandim.

Bitiruv-malakaviy ishimning nazariy qismini yoritishda umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturidan foydalandim. Bu standart va o'quv dasturidan tasviriy san'at ta'limining maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalarini mukammal o'rganib chiqdim. Bu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 6-maxsus sonda berilgan axborotnomasidan olindi¹.

1997 yil Toshkentda nashr qilingan I.A.Karimovning “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”² nomli kitobida mustaqillik bilan bog'liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida, ayniqsa, yosh avlod ma'naviyati, erkin, ozod shaxs ma'rifatiga, madaniyat va san'atning rivojiga alohida e'tibor berganligi, ma'naviy madaniyat va san'atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi hamda ta'lim- tarbiya tizimini tubdan isloh qilish borasidagi fikr-mulohazalari berilgan².

G'. Abdurahmanovning “Kompozitsiya asoslari”³ nomli qo'llanmasi grafika bo'limlarining rangtasvir va kompozitsiyadan mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchilar hamda birinchi kurs talabalari uchun o'tiladigan mavzu, uning hajmi,

¹ Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.6-maxsus son. -T., 1999

² Karimov I.A. Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997

³ Abdurahmonov G.M. Kompozitsiya asoslari.- Toshkent, 2007

hususiyati , vazifani bajarish uchun zarur o'quv qurol va qo'llanmalari xususida fikr yuritilgan.

R.Hasanovning “Maktabda tasviriyy san’at mashg’ulotlarini takomillashtirish yo’llari”⁴ nomli kitobida estetik tarbiya o’quvchida go’zallikni xis qilish, hayotga go’zallik kiritish malakasini rivojlantirish to’g’risida fikr yuritilgan. O’qituvchilarga realistik rasm chizish asoslari haqida bilim berish, ularda xotiradan, tasavvurdan rasm chizish bo’yicha ko’nikma va malakalarini oshirish, o’quvchilarda asarlarni emotsional idrok etish hissini o’stirish, san’atga qiziqish va muhabbat ruhida tarbiyalash kabi tasviriyy san’at predmetining ta’limiy xarakterdagi vazifalari ushbu kitobda keng o’rin olgan.

M.Osimning “Karvon yo’llarida”⁵ nomli saylanma kitobida uchta mavzu bo’yicha ya’ni, tarixiy-qahramonlik ,tarixiy-maishiy,tarixiy-biografik asarlarda kitobxonning g’oyaviy-badiiy ongi va ruhiyatini, hissiy olami va e’tiqodiy qarashlarini oshirish to’laonli yoritib berilgan.

G.I. Bedaning “Osnovi izobrazitelnoy gramoti”⁶ qo’llanmasida tasviriyy san’at asoslari ,perespektiva qonun-qoidolari, obrazli xajm chiqarish, natyurmort, kompozitsiya tuzish haqida ma’lumotlar berilgan. Qo’llanma rasm chizishga qiziquvchi barcha kishilarga mo’ljallangan.

N.N.Rostovtsevning “Risunok. Jivopis. Kompozitsiya”⁷ nomli kitobida tasviriyy san’at namoyondalarining rangtasvir, qalamtasvir va kompozitsiya haqidagi fikr-mulohazalari yoritilgan. Bu kitobda tasviriyy san’atning nozik, har bir musavvirga xos bo’lgan sirlari qiziqarli bayon etilgan. Shu bilan birga men O’zbekiston Badiiy Akademiyasining “San’at” jurnali ma’lumotlaridan foydalandim.

⁴ Hasanov R.. Maktabda tasviriyy san’at mashg’ulotlarini takomillashtirish yo’llari.O’qituvchi –T.,1986.

⁵ Mirkarim Osim , Karvon yo’llarida. Saylanma., G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.”.- T., 1987

⁶ Беда Г.И. Основы изобразительной грамоты“Просвещение”-М., 1981

⁷Ростовцев Н.Н. “Рисунок. Живопись. Композиция. Москва 1989

1-BOB. “TO’MARIS” AFSONASI VA UNGA ISHLANGAN ILLYUSTRATIV MATERIALLAR ORQALI O’QUVCHILARNING BADIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

1.1-§. Grafikada kompozitsiya xususiyatlari va illyustratsiya tushunchasi

Inson grafika asarlariga umr bo’yi har qadamda duch keladi. Chizma tasvir va gravyuralar mustaqil holdagi, tugal fikrli san’at asarlari hisoblanadi. Plakatdagi yoki kitobdagi shriftlar, plakat, jurnal illyustratsiyalari va gazeta karikaturalari, rangbarang etiketkalar, teatr va kinoafishalari, yo’l va tovar belgilari va hatto idoralarning ish qog’ozlari - hammasi dastgohli va sanoat grafikasining namunalari hisoblanadi.

Xo’sh, unda grafika o’zi nima? Grafika - grekcha «grafo» - «yozaman», «chizaman», «rasm solaman» degan ma’nolarni bildiradi. Demak, grafika - avvalom bor bu rasm, chiziqli, aniq, to’g’ri, oq-qoraga moslangan tasvirdir, shu sababli bu san’atda oq qog’oz bu oq rangni, qora qalam, ko’mir yoki boshqa «quruq» bo’yoqli materiallar qoralik vazifasini o’taydilar.

Grafikani ikki xil turi: avvalo, qog’ozdagi **qalam tasvir grafikasi**, so’ngra, **bosma nashr grafikasiga** ajratiladi. Qalamtasvirtsavirni tasviriy san’at turi sifatida eng qadimiy deb tahlil qilish mumkin, zeroiki, bunda albatta ibtidoiy odamning qoyaga chizilgan tasvirlarini nazarga olinadi. Albatta chiziqli rasm haykaltaroshlik va amaliy san’at bilan parallel ravishda o’sib bordi va ularning tarkibiy zaruriy qismini tashkil qildi. Chiziqli tasvirlarning eng yuksak namunalarini bizga chiziq va siluetga asoslangan antiq ko’zalar tasvirlari beradi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida chizma tasvirga, (bosma nashr grafikasiga ham) rang kirib bordi, hozirda grafikaga rangli bo’rlar - pastel, rangli gravyura va suvli bo’yoqlar; akvarel va guash bilan ishlangan tasvirlar ham kiritiladi. Er yuzining yirik muzeylarida o’ta ehtiyotlik bilan qoralama va xomaki tasvirlar, nihoyatda noziklik bilan ishlangan mahobatli bezak va kartinalarni chizma obrazlari, davomli darajada o’ta nafis ishlangan tasvirlar saqlanmoqda.

Grafika asarlarining nomlanishi. Grafika asarlari o'zining ishlanish uslubiga qarab qalamtasvir, gravyura(ksilografiya, litografiya, ofort) deb yuritiladi. Qalamtasvirga qo'lda ishlangan barcha rasmlar (tasvirlar) kiradi. Bu rasmlar oddiy qora qalam, pero, ruchka, mo'yqalamda ishlanishi mumkin. Qalamtasvirda chiziq muhim o'rinni egallab ba'zan bunday qo'lda ishlangan rasmlarni chizmatasvir deb ham yuritiladi.

Qalamtasvir tarixi.Qalamtasvir inson faoliyatining eng qadimgi turi xisoblanadi. Odamzot tabiat bilan muloqatga kirishib borgani sari uning sir asrorlarini o'zlashtirib unga munosabatini bildirib borgan. Yonib ko'mirga aylangan yog'och qalamchasi, tosh, suyak va shunga o'xshash narsalar bilan chiziqlar hosil qilgan, o'z xayajon va fikrlarini ifodalay boshlagan.

Shu san'atning taniqli ijodkorlari etishib chiqa boshladi. Shu o'rinda italiyalik, germaniyalik rassomlar ijodi e'tiborga loyiq. Nemis Uyg'onish davrining so'nggi yirik vaqili Kichik Gans Golbeyn (1497-1543) qalamsurat ustasi sifatida mashhur bo'lib dunyoning eng yaxshi qalamkashlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda qalamtasvir san'atining tarixi o'rta asrchilik bilan bog'liq va asosan xusnixat-kalligrafiya va naqqoshlik san'atining unsurlari-tabiat shakllarining soddalashtirilgan ko'rinishlarida, K.Bexzod asarlarida namoyon bo'lgan bo'lsa ham, lekin uning keng ma'noda zamonaviy ko'rinishdagi shakli 19 asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bu san'atning daslabki ijodkorlari chekkadan kelgan evropalik rassomlar edi.

Ibroxim Davron, U.Tansiqboev, B.Hamdamiy va boshqalar shu boradagi asarlari shu davr izlanishlari natijasi edi. O'zbekistonda yashab ijod qilgan A.Volkov, Usto Mo'min(A.Nikolaev), Chingiz Axmarov va boshqalar shu san'atning ajoib namunalarini yaratib qoldirdilar.

O'zbek qalamtasvirining yangi bosqichi 20 asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib qalamtasvirning akademik yo'nalishida asarlar yaratildi, Dastgoh qalamtasvir keng quloch yoydi. Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Iskandar Voxidov, Alisher Mirzaev, Patxilla Xaitov va boshqalarning dastgoh

qalamtasvirlari, chizgi va qoralamalari shu san'atning yangi imkoniyatlarini namoish etadi.

II. Bosma grafika.

Bosma grafika maxsus moslamalar va texnologik uslublar yordamida amalga oshiriladi. Bosma grafikaning asosini qalamtasvir tashkil etadi. Buning uchun rassom bo'lajak bosma grafika asarining qalamtasvirini biror qattiq yuzada, masalan yaxshi ishlov berilgan taxta(tosh, metall plastinka, linolium va x.k.) yuzasiga o'yib ishlanadi, so'ng shu tasvir maxsus bo'yoqlar yordamida qog'oz yuzasiga(kamdan kam xollarda mato yoki boshqa yuzaga) tushiriladi. Bu bosma grafikadir. Bosma grafika odatda gravyura deyiladi.

Gravyura (frantsuz, «graveg» - «o'ymoq») — rassom biror tekis yuza (taxta, linoleum, metall) ni maxsus asbob — shtixel bilan o'yib tasvir chizadi. Yuzada hosil bo'lgan tasvir «klishe» deb nomlanadi(Kleshe ko'rinishi jihatidan bo'rtma tasvirga o'xshashligi uchun bunday usulda hosil qilingan gravyurani bo'rtma grafika deb shartli nomlanadi).

Grafika turlari. Grafika san'ati qanday bajarilgani va nomlanishidan qat'i nazar o'zining mazmuni va bajaradigan vazifasiga ko'ra qator turlarga ajraladi. Bular;



1.Kitob-gazeta va jurnal grafikasi.

2.Amaliy (yoki sanoat) grafika.

3.Plakat.

4.Dastgohli grafika.

Kitob, gazeta-jurnal grafikasi

Bosmadan chiqayotgan jami kitoblar, gazeta jurnallarning bezaklari, ularga tanlangan xarflardan tortib, muqova rangigagacha, ichki qismidagi chizma va rasmlar grafikaning shu turiga kiradi.

Kitob, gazeta-jurnallarga ishlangan rasm, chizma va bezaklarning vazifasi shu

kitob yoki gazeta-jurnalning mazmunini o'quvchiga etkazib berish xisoblanadi va ularning mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. O'zbekiston san'atida kitob grafikasi tarixi uzoq tarixga kirib borsa ham lekin uning zamonaviy ko'rinishlari XIX asr oxirlaridan keng ko'lamda kirib kelgan va o'zbek zamonaviy san'atining ilk namunalari aynan shu san'atda yaratilgan. XX asr 20 – 30 yillardan esa bu san'atning o'ziga xos milliy shakllari rivojlanib uning yetuk vakillari etishib chitqan. Shular ichida Iskandar Ikromov shu san'atning o'ziga xos ko'rinishlarini yaratgan. Usto Mo'min(Nikolaev), Vladimir Kaydalov, Telman Muxamedov va b. shu san'atning ajoyib namunalari yaratishgan.

Amaliy (yoki sanoat) grafika ham kundalik turmushda ko'p ishlatilagan turli yo'l chiptalari, lotorey va pul qog'ozlari, sanoat buyumlari qutilari yuzasiga yopishtirilgan turli yozuv va rasmlar, harxil etiketkalarni o'z ichiga oladi. Ular buyum yoki mahsulotning mazmunini, mohiyatini tezroq tushunib olishga ko'maklashadi. Turli taklif qog'ozlari, yorliqlar ham shu san'at turiga mansub bo'lib ularning hammasi rassom tomonidan ishlanadi va muomalaga kiritiladi. Bu san'at bugungi kunda komp'yuter grafikasida keng ko'lamda yaratilmoqda.

5-rasm. V.Kaydalov. O'zbek xalq ertaklariga ishlangan rasm (illyustratsiya)

Kompozitsiya xususiyatlari va illyustratsiya tushunchasi

Kompozitsiyaning qonun-qoidolari, usul va vositalari asar mazmunining tasviriy «mag'zi»ni tashkil etadi, kompozitsiyani qurishga yordam beradi, plastikni echimini ishlab chiqishda zaruriy ahamiyatga kasb etadi. Kompozitsiya vositalariga chiziq, shtrix, dog' (pyatno - tusli va rangli), chiziqli perspektiva, yorug'-soya, havo va rang perspektivasi kiritiladi.

Chiziqlardan davomli qalamtasvir, qisqa muddatli homaki rasmlar, kompozitsiya eskizlarida foydalaniladi. Reysfedr bilan yurgazilgan chiziq o'z yo'nalishi bo'yicha yo'g'onligi bir xil, lekin bu chizma chizig'i badiiy maqsadlar uchun yaramaydi, u bir xillikda, nohayotiy, noifodaviydir. Ijod esa bir xillikni yoqtirmaydi, ijod uchun originallik, betakrorlik kerak.

Konturli chiziq predmetning shaklini chegaralaydi, shunday bo'lsada tekislikda faqat chiziq berilgan bo'lsa, shunday uni o'rab olgan tekislik fonga

nisbatan tasavvur paydo bo'ladiki, kontur ichida tasvirlangan predmetning tusi to'q yoki och bo'lib ko'rinadi. Shunday illyuziya hosil bo'ladiki, natijada predmetning yorug' fondagi silueti, o'zini borlig'iga nisbatan dog' bo'lib to'qroq ko'rinadi. Bundan tashqari chiziqli tasvir predmetning hajmini beradigan tasavvur berish mumkin.

Kompozitsiyaning qonun-qoidalar. Kompozitsiyaning qonun-qoidalar: ritm, mazmunli-kompozitsion markaz, simmetriya va asimmetriya, asosiyni ikkinchi planda ko'rsatish kabilardan iborat.

Ritm. Agar simmetriya elementlarni tinch muvozanatini ta'minlasa, ritm harakatni nazarda tutadi, qaysiki bu harakat to'xtamaydi, cheksizlikkacha davom etadi. Ritm hayotda va san'atda katta yoki kichik bir maromda davriy takrorlanishdir. Qandaydir o'xshash elementni, timsoliy vaziyat, shart-sharoitni, ma'lum intervalda almashinib turishidir. Ritm eng avvalo tabiatda mo'jizaviy kompozitsion boshlanma sifatida mavjud.

U borliqning juda ko'plab jabhalarida ishtirok etadi: koinot tuzilishida organik va neorganik tabiatda, yilning fasliy va tarkibiy qaytarilishlarida, hayvonot olamida, o'simliklar dunyosida, odam organizmida (narsalar almashuvida, nafas olishda, yurak urishida) o'ziga xos marom bilan harakatda bo'ladi. Vaholanki, san'atdagi ritm bilan tabiatdagi ritm bir narsa emas. San'atdagi ritm organik tabiatdagi ritmga yaqinroq, chunki u texnik xususiyatlari bilan anchayin plastikdir.

Ritmni ba'zi rassomlar qoida sifatida aytishadi, (mas. A.Deyneka) boshqalari esa qonuniyat deb hisoblasa, uchinchi hil qarash ham bor, ularning fikricha ritm-vosita, kompozitsiyaning tashqiliy boshlovchisi deb hisoblaydilar.

Ritm rassomlar ijodida kompozitsiyaning qonun-qoidasi sifatida o'zining xususiyatlariga va keng harakat diapazoniga ega. U kompozitsiyada tashqiliy va estetik ahamiyat kasb etadi. U kompozitsiya qonunlariga asoslanadi, Chiziq, rang, tus kontrastlarida ifoda etiladi. Ritm muvaffaqiyatli topilgan kompozitsiyada bir varakayiga asarning kontrastlar qonunini qo'llash bilan asarning komponentlariga aylanadi va ularni birlashtiradi ham.

Kompozitsiyada ma'lum bir detal yoki elementlarni takrorlanishi tomoshabinda mazmun va uni o'sib borishini mushohada qilish va his qilishga olib keladi. Ritmning bu xususiyati kompozitsiyaning hayotiylik qonuni bilan o'zaro aloqasini aniqlab beradi, qaysiki bu bilan rassom tashqi harakatlarni ko'rsatish bilan chegaralanib qolmasdan balki, ichki harakatlarni yuzaga chiqaradi. Ritm barcha davrlarda, barcha san'at turlarida mavjud va bor bo'lgan. Qadimiy Sharq san'atida ritmni qo'llash qattiq talab etilgan. Qadimgi Misr san'atida ritm tasvirlari bo'lgan friz kompozitsiyaning asosiy shakli hisoblangan.

Qadimgi Gretsiya san'ati esa, ritm va simmetriyani yaxshi o'zlashtirib olinganligi sababli Misr san'atidan bir qadam oldinga o'tib ketgan edi. Odamning anchayin tabiiy pozalarda va ancha faol harakatlarini ritmda rang-barang tasvirlash bilan qadimgi grek ustalari ifodaviy kompozitsiyalar yaratishgan. Ritmning maxsus xollarini greklarning vazalarida ko'ramiz. Gretsiyaning klassik davridagi rangtasvir kompozitsiyalari ham ritmik asosga qurilgan.

Mazmunli-kompozitsion markaz. Kompozitsiyaning g'oyaviy mazmunini, eng asosiyini etarli va aniq ifoda etib beruvchi kartinaning ma'lum bir qismini *mazmunli-kompozitsion markaz* deb ataladi. Kompozitsion markaz kompozitsiyaning asosiy qonunlariga mos xolda xajmi, yoritilganligi va boshqa vositalari bilan ajralib turadi. Kompozitsion markaz birinchi navbatda, albatta tomoshabin diqqatini o'ziga jalb etishi lozim. Kompozitsiya markazi faqat rangtasvirdagina emas, balki xaykaltaroshlik, grafika, dekorativ san'at va me'morlikda ham alohida o'rin egallaydi. Kompozitsiyani albatta insonni ko'rish xususiyatlarini hisobga olib qurish kerak.

Mazmunli-kompozitsion markazni tashkil etish ham xuddi shu nuqtai-nazar bilan bog'lanadi va shundagina yorqinroq ifodalash bilan badiiy asar mazmunidagi asosiy narsa ko'zga tashlanadi. Shu sababdan, kompozitsiyaning bosh talablaridan biri - o'zida mazmunni konstruktiv g'oyasini mujassam etgan mazmunli-kompozitsion markazni to'g'ri joylashtirish hisoblanadi. Yaxlitlik qonuniga ko'ra, rassom mantiqan kompozitsiya markazini boshqa qismlari bilan bog'laganligini

asoslash kerak. Mazmunli kompozitsion markazni ikkinchi planda joylashtirish, go'yoki yaqindagidan uzoqlikka ketishga olib keladi va kartina qismlarini joylashtirishda, markaz bilan ularni birlashtirishning boy imkoniyatlaridan foydalanishida qo'l keladi.

I.E.Repinning «Kutmagan edilar» polotnosida mazmunli markaz ikkinchi planda ko'rsatiladi. Unda xibsdan qaytgan inqilobchi figurasi turadi. A.A.Ivanovning «Isoning elga ko'rinishi» asarida mazmunli markaz, bu ulkan polotnoning nomiga mos xolda ikkinchi planga uzoqlashtirilgan va mazmunga mos holda bosh personajning figurasi kichiklashtirilgan hamda uning yakka xolda umumiy fonda berilishi bilan ommaga nisbatan ajralib turadi.

Asimmetriya. Asimetriya tuzilishi jihatidan simmetriyaning aksincha ko'rinishidir. Agar kompozitsiya asimmetrik ko'rinishda bo'lsa, demak u simmetrikmasdir yoki aksincha teskarisi. Asimmetrik kompozitsiyada muvozanat predmetlar orasidagi fazoviy uzilishlar bilan bir-biriga yaqinlashadi yoki butunlay ajralib ketadi. Muvozanat qarama-qarshi qo'yilgan katta va kichik, ochlik va to'qlik kontrasti, yorqin va xira ranglar bilan hosil qilinadi. Bunday kompozitsiyalarga K.P.Bryullovning «Pompeyning so'ngi kuni», A.A.Deynekaning «Sportchi qizlar»i va boshqa ko'plab asarlarni misol keltirsa bo'ladi.

Simmetriya. Simmetriya umuman san'atda, xususan tasviriy san'atda o'zining asosini real borliqdan oladi. Kompozitsiyani simmetrik tashkil qilish uchun xarakterliligi uning muvozanatini xajmiy qismlarga, tusga, rang va hatto shakllarga nisbatan olinishidir. Bunday xolda odatda bir qism ikkinchisi bilan xuddi ko'zgudagidek o'xshaydi.

Simmetrik kompozitsiyalar hammasidan avval yorqin ifodalangan markazga ega bo'ladi. Odatda u kartina tekisligining geometrik markaziga mos keladi. Agarki chiqish nuqtasi markaz bilan aralash bo'lsa, xajmiy holda biror qism og'iroq bo'lsa, yoki bu tasvir diagonal bo'yicha qurilsa bu kompozitsiyaning harakatchanligidan darak beradi va qandaydir ma'noda g'oyaviy mazmunni buzib turgandek bo'ladi.

Biror adabiy asar yoki uning biror bir voqeasi asosida ishlangan tasvirni illyustratsiya deb aytamiz. Illyustratsiya uchun avvalo mavzu tanlanadi.

Tanlangan mavzuga mos tasviriy sujet hosil qilinishi illyustratsiyaning eng asosiy talabi hisoblanadi. Ilyustratsiyaning tasviriy uslubini rassomning o'zi tanlaydi.

Tasvirlangan **illyustratsiyaning** adabiy mazmun bilan ham ohangligini qay darajada ta'minlab berish, rassomning katta yutug'i hisoblanadi. Chunki so'z bilan ifoda etilgan voqeani yozuvchi boshqa bir tomonini ko'rsa, rassom boshqa bir jihatini ko'radi, yoki tasviriy vositalarni qo'llanilishi so'z ifodasiga mos tushmasligi mumkin.

Masalan, «Xazonrezgi bog'lar ichra kezaman tanho», degan so'zni rassom qay yo'sinda ifoda etmasin, faqat o'sha rassomgagina ma'lum bo'lgan taassurot qog'ozga tushadi. Bunda rassomning mushohadasi asosiy hisoblanadi.

Rassom shunday ifoda topishi zarur bo'ladiki, u o'sha mazmunni, shoir nazarda tutganidek ko'rsata olsin. Shu bilan birga, har bir san'atning o'z spetsifik imkoniyatlari ham mavzu talqinini ijodiy hal qilishga olib keladi. Xuddi, yuqoridagi «xazonrezgi bog'larni» ifodalash uchun albatta daraxtlar, kuz fasli, biror yo'lak tasvirlanadi.

Lekin, bu detallar asosiy emas, balki «nima uchun xazonrezgi bog'larni tanho kezilmoqda?» - mana bu holat asosiydir. Shu sababli, rasmda (illyustratsiyada) shoir aytilgan detallar ham ishtirok etishi mumkin, shu bilan bir qatorda shoirning nima demoqchiligi, tanho kezishining sababi, orzu yoxud armonmi, taskin yoxud xotirami?, - masalaning bu tomonlari ham illyustratsiyada ochib beriladi. Shu o'rinda yana bir uyg'unlikni nazarda tutiladiki, illyustratsiya umumiy yaxlit kompozitsiya qonuniyatlaridan kelib chiqadi.

Ya'ni, illyustratsiyaga tipiklik nuqtai-nazardan ham qaraladi. Xullas, illyustratsiya qanday shaklda bo'lmasin tomoshabin ko'zi o'ngida adabiy asarning ichki kechinmalarini kitob voqealariga mos holda ifodalay olishi kerak.

1.2§. Afsona va tarixiy mavzularning grafikachi rassomlar ijodida aks etishi

Afsona va tarixiy mavzularning grafikachi rassomlar ijodiy asarlari jahonning eng yirik muzey kutubxonalari (Sankt-Peterburgdagi Ermitaj, Nyu-Yorkdagi Metropoliten, Londondagi Britaniya muzeyi, Parijdagi Frantsiya Milliy kutubxonasi va boshqalar)da Sharq kitobat san'atining nodir namunalari saqlanadi.

Turk san'atshunoslarining tadqiqotlariga qaraganda Istambulning To'pqopu Sariti muzeyida va Ayol Sofiya muzeyida Samarqand va Xurosonda kitobat qilinib, miniaturalar bilan beza-tilgan yuzga yaqin qo'lyozma va muraqqa'lar avaylab saqlanmoqda. To'pqopu saroyi muzeyida saqlanayotgan «Shohnoma», Nizomiyning «Hamsa»si, yuz varaq, 650 suratdan iborat Boysunqur Mirzo albomi, Amir Temur va temuriyzodalar suratlaridan iborat muraqqa'lar, Bahrom Mirzo albomi va o'nlab Ulug'bek Mirzo va Sulton Husayn Mirzo muhrlari chekilgan qo'lyozmalar shular jumlasidandir.

Hattotlar va rassomlar haqidagi qimmatli manbaa «Gulistoni-hunar» asarining muallifi Qozi Ahmad Qumiyning yozishicha, Ustod Kamoliddin Behzodning mahoratda tengsiz shogirdlaridan bo'lmish Do'st Devona ismli rassom ham Hindistonga ketib, o'sha erda shuhrat orttirgan ekan.

Boburning nabirasi Akbarning tahminan yarim asrlik hukmronlik davrida ham hind miniatura rassomlik maktabi yangicha uslubda rivoj topadi. Shoh Akbar esa yoshligidanoq hattotlik va rassomlik taraqqiyotiga juda katta e'tibor berib, saroy qoshidagi ustaxonaga rassomlarni jalb etishda shaxsan o'zi bosh-qosh bo'ladi, haftaning ma'lum kunida musavvirlar ishlarini nazoratdan o'tkazib, muvaffaqiyatga erishgan san'atkorlarga in'omlar tuhfa etgan yoki ularning oylik maoshini ko'paytirib turgan.

Biz ko'rib ko'zimiz ko'nikib qolgan kitoblar osongina shu ko'rinishga kelgan emas, qadimda matnlar uzundan-uzun, bir necha metr lab yozilgan, bunda papirus o'simligi poyasidan foydalanilgan, dumaloqlab ip bilan bog'langan. Buning misoli tariqasida Britaniya muzeyida saqlanayotgan Garriis papirusini keltirish mumkin. Uning uzunligi 40 metrdan ortiqdir.

Messopotamiyada matnlar tekislangan loydan qilingan (tablichka) ko'rgazmaga yozilib, so'ng qizdirilgan. Qadimiy Rimda kitobning boshqa turi poliptix qo'llanilgan, u daraxtning tanasidan tekislangan, bosx bilan qoplangan, qayish bilan mahkamlanib harflarni tirkab yozilgan. Albatta, ularning sahifalari kam miqdorda bo'lgan. Bizning eramizgacha II asrda yangi material yozuv uchun pergament (maxsus teri) qo'llanila boshlangan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, zardushtiylarning afsonaviy muqaddas kitobi «Avesto» kitobi ham bir necha mol terisiga yozilganligi ma'lum. Kitob bosma rivojlanishi bilan kitobning muqovalari ham o'zgardi. U endi yuvilir (bezakli buyum) sifatida emas, amaliy maqsaddan kelib chiqib, kitobni saqlovchi vazifasiga o'tdi.

Shu o'rinda talantli o'zbek rassomi Telman Muhamedovning G'.G'ulomning «Shumbola» povestiga chizgan rasmlarida rassomning o'ta ijtimoiy hushyorligi, quvnoq hazilni yoqtirishi hushchaqchaq hislari «mana men» deb turadi, kitob muqovasi, zarvaraq va rasm-larida rassom turli hayot sharoitlarida, turlicha odamlar davrasida bolani tasvirlar ekan, uning obrazini yanada bo'rttiradi.

Zukkolik, topqirlik, turmush tasodiflariga duch kelganda ham qiziqchilikka moyillikni yo'qotmaydigan «Shum bola» obraziga musavvir katta hurmat tuyadi, hamdardlik va kinoya bilan munosabat bildiradi. Eshon, boy, darvesh, bangilarning obrazlarni tanqidan xajviyona aks ettiradi.

Tosh bosma kitob, so'ngra hozirgi matbaa texnologiyasi yaratilishi munosabati bilan kitob bezashda ham juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Avvalgi nodir qo'lyozma kitob yillar o'tishi davomida yagona nusxada yaratilsa, endi zamonaviy dastgohlar juda qisqa vaqt davomida ko'plab nusxada chop etishi mumkin. Zamonaviy dastgohlar talabidan kelib chiqib, o'tmish kitob san'atkorlari badiiy ijod an'analarini yangi kitob bezaklariga moslab qayta ishlash respublikamiz rassomlarining birinchi avlodi zimmasiga tushdi.

Iskandar Ikromov 1904 aprelda Toshkentda oddiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Iskandar Ikromov etti yoshga to'lganda yangi tipdagi namuna

maktabida o'qiy boshladi. Bu maktabda umumiy ta'lim fanlari qatori rasm (tasviriy san'at) ham o'qitilar edi.

Maktabda rasm o'qituvchisining o'z ishiga sididildan munosabati yosh Iskandarga kuchli ta'sir etdi. O'qituvchi rasm darsi bilan chegaralanib qolmasdan darsdan keyin bolalarni ochiq havoga olib chiqar va u erda e'tiborga loyiq ko'rinishlarni chizdirar, san'at muzeylari va ko'rgazmalarga olib borib san'atga qiziqish o'yg'otishga harakat qilardi.

Uning bu harakatlari natijasida Iskandar Ikromovda rassom bo'lishlik ishtiyoqi paydo bo'ldi. 1922 yilda uni ota-onalari yosh Iskandarni rassom bo'lishiga qarshilik ko'rsatganliklari sababli, u uydan ketib Turkiston o'lka badiiy badiiy maktab-internatida o'qiy boshladi. U badiiy maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq klub, kutubxona, choyxona devorlariga rasmlar chiza boshladi. Bir yil o'tar o'tmas u "Bolalar dunyosi" va "Mushtum jurnallarida o'z rasmlari bilan boshladi.

I.Ikromovni san'at sirlarini egallashga harakati shunday tez tus oldiki, rassomchilik maktabida berilayotgan bilimlar uni qanoatlantirmay qoldi. Natijada u Sankt Peterburgdagi badiiy sanoat texnikumiga o'qishga kirdi va u erda 1925-1929 yillarda V.S.Svarog va N.V. Levitskiylardan ta'lim oldi. Bu davrda bir yo'la o'n o'qituvchilik kursiga ham qatnashib, muallimlik sirlarini ham o'rgandi. Natijada u tasviriy san'at metodisti diplomini olishga muvaffaq bo'ldi.

Rassom 1929 yilda O'zbekistonga qaytib keldi. 1930 yilda "Alanga" jurnalida tasviriy san'at metodikasiga oid maqolalar e'lon qildi. Samarqanddagi erkaklar va ayollar pedagogika texnikumlarida tasviy san'atdan dars berdi. 1932 yilda uning "Rasm o'rgatish qo'llanmasi" nashr etildi. Bu kitobda rassomning "Maorif va o'qituvchi" "Alanga" kabi jurnallarda metodik yo'l-yo'riqlari berilgan edi. qo'llanmada tasviriy san'atdan atamalar lug'ati ham bor edi. 1933 yilda I.Ikromovning "Kitob va jurnallar qanday nashr etiladi?" nomli foto montaji, 1935 yilda "Harflarni yozishni o'rgan" nomli qo'llanmasi chop etildi.

I.Ikromovning 30 yillarda o'qituvchilik, targ'ibot va tashviqot ishlari bilan birga ijodiy ishlari ham kengaydi. Uning dastlabki muvaffaqiyatli ishlaridan biri yozuvchi N.Safarovning "Unutilmas kunlar" kitobiga ishlangan illyustratsiyalari

edi. Bu illyustratsiyalarda rassom 1916 yilgi milliy ozodlik harakatlarini ko'rgazmali tarzda ochib berishga harakat qilgan edi.

O'zbekistonda 30 yillarda nashr etilgan kitoblarda naqshli bezaklarni qo'llashni I.Ikromov boshlab bergan edi. Shu uslubda rassom A.S.Pushkinning she'rlar to'plamlari, "O'zbek sovet adabiyoti", "O'zbek xalq qo'shiqlari" to'plami, A.Navoiyning "Hamsa" asari, ("Farxod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sa'diy Iskandariy", "Sabbai sayyor", "Hayratul-abror") badiiy bezatildi. Bu o'sha davrda kitob bezagida yangicha miliy uslubni paydo bo'lganligini bildirar edi. 1943 yilda O'zdavnashr chop etgan P.Lejnevning kitobining badiiy bezagini rassom ishlagan edi. U urush yillarida afishalar, plakatlari, taklif biletlari, faxriy yorliqlar, kalendarlar bezashda ham anchagina ishlarni bajardi. Urush yillarda A.Navoiy asarlarini nashr etish davom etaveradi. Bu ishlarning bezagi (muqova, titul, bosh bezak, yakuniy bezak, illyustratsiyalar) I.Ikromov tomonidan tayyorlandi.

Hamid Olimjonning "Tanlangan asarlar"i kitobida ifodalangan majnuntol va nihol tasvirlari kitobxonga lirik kayfiyat baxsh etadi. I.Ikromovning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi katta siyosiy va badiiy ahamiyat kasb etdi. Uning bu xizmatlarini hisobga olib 1944 yilda unga O'zbekiston xalq rassomi unvoni berildi. 1948 yilda buyuk mutafakkir va ko'p qirrali olim matematik, astronom, geograf va tarixchi Beruniyning 900 yillik yubileyini nishonlandi. Shu munosabat bilan uning chop etilgan ishlari bezagini bajarish I.Ikromov zimmasiga tushdi va uni rassom yuksak saviyada amalga oshirdi. Uning bu ishidan qoniqish hosil qilgan.

O'zbekiston fanlar akademiyasining rahbariyati va uning nashriyoti bir qator olim va yozuvchilarning asarlarini bezatishni unga ishonib topshirardi. Fanlar akademiyasining bu topshiriqlari talab darajasida bajarildi. A.Ikromov O'zbekiston rassomlar orasidagi obro' e'tiborini oshishi uni O'zbekiston rassomlar uyushmasi raisligiga saylanishiga olib keldi va uni rassom 1959-65 yilar davomida boshqardi. 1960 yilda esa u O'zbekiston Oliy Kengashi deputatligiga saylandi.

1960 yilga kelib Alisher Navoiyning to'rt tomli "Lirika" she'rlar to'plami, "Xitoy xalq ertaklari" to'plamiga va boshqa qator grafik ishlari uchun rassomga "Hurmat belgisi" ordeni berildi. I.Ikromov bezagan kitoblar Germaniyaning

Leyptsig shahrida 1959 yilda o'tkazilgan xalqaro kitob ko'rgazmada diplom va medal bilan mukofotlandi. Rassomning Ibn Sino, Beruniylarning o'zbek va rus tillarida nashr etilgan ishlari, ko'p jildli asarlar to'plamlari, "O'zbek xalq musiqasi" to'plami, Oybekning "Navoiy" romani uning ijodining gullagan davridagi asarlari qatoriga kiradi. Iskandar Ikromov O'zbekistonda kitob grafikasini taraqqiyotiga katta xissa qo'shgan rassom sifatida tasviriy san'at tarixidan o'rin olgan.

Muhamedov Telman Yaminovich 1934 yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1976 yilda Toshkentda vafot etgan. Telman san'at sirlarini dastlab Toshkent badiiy bilim yurtida, so'ngra Toshkent teatr va rassomchilik institutida (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti) olgan. 1969 yilda bu institutni tugatgan. Kitob bezovchi rassom sifatida u Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasidagi qo'lyozma kitob miniaturalari, akademik G.A.Pugachenkovaning shaxsiy kutubxonasidagi noyob miniaturalar bilan tanishgandan so'ng unda san'atning yangi qirralari ochildi. "Qor bobo, quyon va bo'ri" nomli birinchi o'zbek multfilmi uchun suratlarini yaratdi.

Shubxasiz, ularda yosh iste'dodning yorqin qirralari namoyon bo'lgan edi. Yumorga boy karikaturalari "Mushtum" jurnalida muntazam ravishda e'lon qilib borilgan. O'z asarlari bir qator xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etgan. 1974 yilda Moskva xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining bronza medaliga sazovor bo'lgan. 1968 yilda Rassomlar uyushmasining a'zoliciga qabul qilingan.

O'zbek halq ertaklari, Afandi latifalari, G'ofur G'ulomning "Shum bola", Mirmuhsinning "Me'mor" asarlariga ishlangan illyustratsiyalarida rassomning iqtidori yaqqol namoyon bo'lgan. Miniatura janridagi ko'p ko'rinishlilik, teskari perspektiva, reallik va noreallik xususiyatlari Telmanning "O'zbek halq ertaklari"ga (1976 y.) chizgan suvratlarida yangicha ijodiy talqinni ko'rish mumkin.

Mana shu ishlangan suvratlar musavvirga katta shuhrat keltiradi, uning asl nusxalari O'zbekiston Davlat San'at muzeyida saqlanmoqda. Musavvir halq ertaklarida o'rta asrlarida Sharqxonni hayot tarzini, sharqona binolar, liboslar va muhitni gavdalandiradi. Rassomning shoh asarlaridan biri "Nasriddin Afandi sarguzashtlari" turkumidagi (1971 yil) asarlari hisoblanadi.

Uning bu mavzudagi kompozitsiyalarida ortiqcha unsurlar yo'q. Hatto, qog'oz satxida qo'shimcha chizgilar ham yo'q. Shakllar kam bo'lishiga qaramay mazmun boyligiga erishilgan. Engil chiziqlarda ruhiy holatlar o'tkirlashtirilgan. Telman yaratgan har bir obrazda, eng avvalo, harakter, uning ichki dunyosi balqib turadi. Xarakter goh jiddiy, goh lirik, goh hajviy usulida nozik chizgi, rang o'yinlari va bezakdorligi orqali gavdalandirilgan. Rassom ijodiy faoliyatini boshlaganidan umrining oxirigacha "Mushtum" satirik jurnali bilan hamkorlikda o'tgan.

Rassomning vafotidan so'ng uning 1986 yilda O'zbekiston Davlat san'at muzeyida ochilgan ko'rgazmasida N. Aminovning "Labi Hovuz xandalari" kitobini, sharqona muhabbat sohiblari "Toxir va Zuhra", "Farxod va Shirin", "Xunarli yigit", "Uch og'ayni botirlar", "Oltin ko'zadagi to'ti" kabi ertaklarini, oilaviy portretlar "Onam portreti", "Avtoportret", "Rafiqam portreti", turli xil tabiat manzaralarini "Gurzuf" turkumi, bolalarga atalgan sujetlar "G'uncha", "Gulxan" jurnallaridagi suvratlar, satirik va yumoristik grafik ishlar, "Mushtum" sahifalarini, tarixiy mavzu talqinlari, Mirmuhsinning "Me'mor" tarixiy romaniga yuzlab suvratlar, grafik va dastgohli suvratlari namoyish etilgan.

Yuqoridagi ijodiy turkumlar rassomning miniatura usulida yaratilgan asarlari chinakam kashfiyotdir. Bu bilan u o'ziga xos maktab yaratdi. "Mushtum" jurnalidagi hamkasblari xikoya qilishlaricha, rassomning biror kuni latifasiz o'tmagan.

U ko'rgan-bilgan, eshitgan voqealaridan ustalik bilan kulgili vaziyatni yon daftarlariga hamisha xomaki chizgilar qilib yurgan ekan. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining faxriy akademigi Rafael Toqtoqshning ta'kidlashicha-Telman Muhamedov o'rta asrlar miniaturalaridan nusxa ko'chirish yoki uni tiklash yo'lidan bormadi. Aksincha u oddiy qog'oz, qalam va ranglar bilan ishlab, ularga zamonaviylik baxsh etdi. U o'z asarlariga o'zbek halqining engil kulgusini, xajvga moyil muloqotini, lofga boy mushohadasini, estetik va etik qarashlarini olib kirdi. Bularni miniatura xos nafis rasmlarda, ranglarning tovlanishlarida, shakllarning erkin harakatlarida yuksak mahorat bilan aks etdirdi. Telman Muhamedovning ijodi misolida Sharq miniatura san'ati namunalariga xos chiziqlar nafisligi, mazmundorligini o'zgacha talqinda ko'rishimiz mumkin.

Anatoliy Andreyevich Bobrov -1948 yilda Sharqiy Qozog'iston viloyatining Radionovka qishlog'ida tug'ilgan. 1972 yilda Toshkent Davlat teatr va rassomlik san'ati (Hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti) institutining sanoat grafikasi fakultetini tamomladi. Lekin hayotini kitobni badiiy ishi bilan bog'landi.

Kitob Anatoliy Bobrovning butun hayoti mazmuniga aylangan. U badiiy ibtidoaning tasviriy in'ikos vositalarini mukammal o'zlashtirgan va kitobning bosmadan chiqishiga qadar bo'lgan butun nozikliklarni anglab etgan rassom.

Uning nomi nafaqat respublikamizdagi, balki undan tashqaridagi kitob san'atini qadrllovchilarga ham yaxshi tanish.

A. Bobrov bezagan kitoblar respublika, respublikalararo va xalqaro konkursning diplomlari bilan taqdirlangan. Bezaklarning asl nusxalari O'zbekiston Davlat san'at muzeyida, O'zbekiston Badiiy akademiya ko'rgazmalari direktsiyasining fondida saqlanmoqda.

A. Bobrov M.R. Dayoning "Indoneziya ertaklari va afsonalari", qaroqalpoq eposi "Shahriyor", hind qahramonlik eposi "Ramoyana", H. Olimjonning "Semurg" sovg'a nashri, Asqad Muxtorning "Qo'l izi" she'rlar to'plami, Muhammad Alining "Boqiy dunyo" she'riy romanning o'zbekcha hamda ruscha nashri, A.S. Pushkinning

“Baliqchi va oltin baliq haqida ertak” kitobi, Ch.Aytmatovning “Asarga tatiguvlik kun” va “Qiyomat” asarlarida, qirg‘iz eposi “Manas” va boshqa ko‘plab kitoblarni badiiy bezadi. A.Bobrov bezagan har bir kitob o‘z qiyofasiga ega. Badiiy asosga chuqur kirish umuman Bobrovga xos xususiyatdir. A.Bobrov O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a‘zosi.

Hozirgi kunda qator yosh kitob rassomlari o‘z ijodlarida qadimgi mu‘tabar qo‘lyozmalar naqshlariga murojaat etishi, xususan, miniatura rasm uslubiga ergashish, shu sohadagi I.Ikromov, T.Muhamedovlar san‘atlarini ravojlantirishiga intilish tendentsiyasi tobora o‘sib bormoqda. Bu narsa Qutlug‘ Basharov, Abdulboqi G‘ulomov, Temur Sa’dullaev, Florida Gambarova, Abduvosit Qambarov, Temurg‘olib Jamoliddinov va boshqalar ijodida, izlanishlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, aytishimiz mumkinki, kitobat san‘ati juda, qadimiy tarixga ega va o‘z taraqqiyoti davrida bir necha bor o‘z shakl-tamoyilini o‘zgartirib bo‘lsada, hozirgi sharoitda o‘zining mukammaliga erishgan deyish mumkin. Ayniqsa, kitoblarni so‘nggi yillarda ko‘plab nashr etilmoqda, davr taqozosi bilan rang-barang illyustratsiyali muqovalar, foto-rasmlı kitoblar turli shakllarda ishlab chiqarilmoqda. Biroq kitobat san‘atida miniatura, mumtoz san‘at an‘analari bilan bezatganligi ham hali hamon o‘z qimmatini yo‘qotganicha yo‘q.

2.1-§. “To`maris” afsonasi voqealarini tahlil qilish orqali o`quvchilarning ijodiy tasavvurini o`stirish

Men o`z bitiruv malakaviy ishimni ushbu bo`limida “To`maris” afsonasi tarixi, uning g`oyasi va mohiyatini tahlil qilishdan oldin dastlab afsona, rivoyat so`zlarining ma`nosiga e`tiboringizni qaratishga harakat qilaman.

Afsona va rivoyatlarning tasviriylar san`atda tutgan o`rni, uning insoniyatga o`tkazgan ijtimoiy-psixologik ta`siri, ularning tartibga soluvchilik, tasalli beruvchilik kabi jamiyatdagi ustuvor vazifalari, dunyo madaniyati va san`at shakllanishidagi o`rni, avesto, buddaviylik, xristianlik, islom kabi dunyo dinlari tasviriylar san`atda mazkur din rivoyatlari obrazlari va ramziylar timsollarining yaratilish tarixi va tahlilini bilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarashlar erkinligini ta`minlash jarayonida jamiyatning barcha a`zolarini ayniqsa yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko`maklashish, Vataniga va milliy qadriyatlarimizga sadoqatli, har tomonlama etuk komil insonlarni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Afsonaviylar dunyoqarash qadimiylar davr insonlarining tafakkuri, orzu-umidlari asosida vujudga keladi. Qadimgi davr ijodkorlari asarlarida esa davr afsonalari va tarixiylar jarayonlar o`z aksini topadi. Shuning uchun san`atshunos, muzeyshunos hamda musavvirlar uchun shu yunalishdagi asarlarni tushinishda qadim zamonlardan vujudga kelgan afsonalarni o`rganish va o`zlashtirishda muhimdir.

**Malika To`maris jasorati** ikki daryo atrofi va oralig`ida yashovchi xalqlar tarixida o`chmas iz qoldirdi. Moziyda bo`lib o`tgan har bir voqea faqat tarixchi bitigida emas, eng avvalo xalq xotirasida o`zining boqiy izini qoldirishi shak-shubhasiz. Xalq og`zaki ijodi namunalarida, xoh “To`maris” bo`lsin, xoh “Muslimnoma” bo`lsin xalqlar bosib o`tgan yo`llar davomida sodir bo`lgan hodisalar o`z aksini topgan. Xuddi mana shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, To`maris jasoratiga nazar tashlaylik. Bundan bor-yo`g`i yuz-yuz ellik yilcha burun Samarqand dashtlarida “Oysuluv” nomli doston kuylangan. Ming afsuskim, Ergash

Jumanbulbulning momosi bo'lmish Tilla kampir kuylagan bu doston bizgacha etib kelmagan va atoqli olim Hodi Zarif doston mazmunini yozib olgan, xolos.

Dostonning bosh qahramoni Oysuluv Eron podshohi bosqinchi Doroga qarshi kurashadi. Oysuluv timsolida malika To'maris namoyon bo'lgani haqida gapirib o'tirish ortiqcha. "Oysuluv" dostonining mavjud bo'lgani O'rta Osiyo xalqlari qatori biz – o'zbeklarning ham **To'maris** jasoratiga voris ekanimizni tasdiqlab turadi.

Qadim moziy bitiklarini varaqlagan insonlar dunyoning yarmini titratgan forslar hukmdori Kir nomini emas, balki ona yurtini himoya qilib bosqinchilarni mag'lub etgan massagetlar malikasi, mag'rur va qo'rqmas To'maris nomini ulug'laydilar. Bundan qariyb etti asr burun yashagan, insoniyatning ulug' dahosi Dante o'zining o'lmas "Ilohiy komediya" asarida Turon malikasi jasoratini ilk bor she'rda madh etgan edi. Kir ustidan g'alaba qozongan To'maris haqida yozar ekan, Dante biz – bugungi avlodlar yuragini hayajonga soladigan satrlarni bitadi:

*Paydo bo'lib go'yo dahshatli o'ch qilichi,
Kirga hayqirgancha so'zlar To'maris:
— Qonga juda tashna eding, endi ich, qonxo'r!*

Afsona – uzoq zamonlardan beri og'izdan - og'izga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodi janri bo'lib, odatda u hayolot, orzu, uydirma va badiiy to'qimadan tashkil topadi. Ayrim hollarda voqeaning tasvirlanishi jarayonida yoki og'zaki ijroda afsona voqealarining bo'lib o'tgan davri, makoni ham taxminan ko'rsatib o'tiladi. Afsonalar insoniyatning azaliy orzu-istaklarini ifodalaganligi uchun ham halqimiz uni bor vujudi bilan tinglaydi va undan o'z hayotlari uchun tegishli xulosalar chiqaradi. Ba'zida og'zaki hikoyat tarzida to'qilib, turli hayoliy, yasama obrazlar orqali voqealar rivojlantiriladi.

Hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir go'yo shunday bo'lgandek qabul qilinadi. Afsonalar ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi.

Tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi jangnoma tipidagi qahramonlik afsona va rivoyatlari-(*Alp er To`nga, To`maris, Shiroq, Afrosiyob, Siyovush, Iskandar Zulqaynar, Jaloliddin Manguberdi, Ibn Sino, Bobur, Amir Temur, Nomoz botir*);

**Shu jihatdan afsonadagi Malika To`maris jasorati ikki daryo atrofi va oralig`ida yashovchi xalqlar tarixida o`chmas iz qoldirdi.** Shu sababdan muarrixlar bu qahramon ayolni goh bu, goh u xalqqa mansub bo`lgani haqida yozadilar. Ammo tarix faqat muarrixlar mulki emas, tarix xalq yodnomasi hamdir. Moziyda bo`lib o`tgan har bir voqea faqat tarixchi bitigida emas, eng avvalo xalq xotirasida o`zining boqiy izini qoldirishi shak-shubhasiz.

Bu voqea eramizdan oldingi 530-529 yillar orasida bo`lib o`tgan. O`sha zamonning buyuk hukmdorlaridan biri, forslar podshohi Kir (Kayxisrav) o`z saltanatida yashaydigan xalqlarni ketma-ket bo`ysundirar ekan, tobora o`z nomini shon-shuhratga ko`mish maqsadida yangi-yangi yurishlar rejasini tuzardi. Kir bundan bir necha yil avval buyuk Bobil shahrini qo`lga kiritgan edi.

*Bunday boy va shavkatli shaharni qo`lga kiritganidan Kir dunyoga sig`masdi. U o`ziga xudolar nazari tushgan va shu sababdan omadliman, deb hisoblardi.* Darhaqiqat, Kir juda omadli edi. Bunga ishonish uchun shahanshohning hayot yo`lini ko`zdan kechirish, ayrim voqealarni aytib o`tish o`rinli bo`ladi. Ammo bu haqda hikoya qilishdan avval tarixning yana ham olisroq qatlamlariga nazar tashlaylik.

Eramizdan oldingi **IV ming yillikda** etnik qatlami haligacha to`la aniqlanmagan shumer qabilalari bu ikki daryo orasidagi hosildor erlarni o`zlashtira boshladilar. Ular eng avvalo bu erda ko`p uchraydigan botqoqzorlarni quritdilar, Furot daryosining dahshatli bahoriy toshqinlariga barham beradigan murakkab irrigatsiya shahobchalarini tuzib chiqdilar. Shimolda Armaniston tog`laridan janubga Fors qo`ltig`iga, Sharqda Eronning tog`li viloyatlaridan G`arbga Suriya – Messopotamiya cho`llarigacha cho`zilib ketgan keng hudud qadimda yunon geograflari tomonidan Messopotamiya (ikki daryo oralig`i – Frot va Dojla

daryolari) deb atalgan. Hozirda u Iroq Respublikasi hududiga to'g'ri keladi. Qadimgi Messopotamiya kishilik madaniyati erta rivojlangan o'lkalar qatoriga kiradi.

Arxeologlar undan paleolit davridan (70-80-ming yilliklar) odamlar yashab kelayotganligini aniqlaganlar. Frot va Dojla daryolari toshqinlari sababli vohada aholi faqat mil.avv. 9-8 ming yilliklardan yashay boshlagan. Shu vaqtdan dastlabki to'g'onlar, sug'orish inshootlari qurila boshlagan. Messopotamiyaliklar diniy e'tiqodi tabiat kuchlari, osmon jismlari asosida shakllangan. Xudolar dastlab ayollar qiyofasida, keyinchalik erkaklar siymosida tasvirlangan.

Buning natijasida dehqonchilik yuksalib savdo-sotiq rivojlandi, oxir-oqibatda ikki daryo oralig'ida dastlabki shahar – davlatlar tashkil topdi. Ikki daryo oralig'i quyi qismining shimoliy tarafida eramizdan oldingi **III ming yillikda** ko'chmanchi semit-akkad qabilalari o'rnatilib oldilar. Ular shumerlarga qo'shni bo'lganlari uchun ularning kuchli ta'sirida edilar. Ammo oradan bir asr o'tar-o'tmay shumerlar o'z tillarini unutib, akkad tilida gapira boshladilar. Shumer tili faqat fan, diniy adabiyot tili sifatida saqlanib qoldi. Ammo oxir-oqibatda u o'lik tilga aylandi. Bu shumer tilining odamlar turmushida muhim o'rin tutgan sohalardan tobora siqib chiqarilgani oqibatida ro'y berdi.

Ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilining bugungi ahvolidan kelib chiqib, tarixning bu hikmatidan tegishli xulosalar chiqarish bizning burchimiz va vazifamiz ekanligini unutmaslik kerak. Bobilning eng yuqori taraqqiy bosqichi Bobil shahri shohlarining birinchi sulolasining oltinchi shohi bo'lmish Xammurani (eramizdan oldingi 1792-1750 yy.) davriga to'g'ri keladi. Biroq, bu sulolaning so'nggi hukmdorlari davrida Bobil inqirozga yuz tutdi.

Yunon muarrixi Plutarx “Dilkash suhbatlar” asarida Kir bilan Astiag o'rtasida kechgan jang bayonida g'aroyib bir hikoyani so'ylaydi: “Forslarni Midiya shohi Astiag hukmidan qutulishga chorlagan Kir jangda mag'lubiyatga uchradi. Mag'lub bo'lgan fors askarlari quvib kelayotgan dushmanlardan qochib o'z shaharlariga kirib olishga harakat qilayotganlarida, shahar ayollari o'z

erlarining yo'lini to'sib chiqdilar va shunday dedilar: “Ey, muttaham qo'rqoqlar, qayoqqa qochyapsiz? Ayollarning bu ahvolini ko'rib va so'zlarini eshitib qochishdan to'xtadilar. So'ng dushmanga yuz o'girib jang boshladilar. Bu safar ular g'olib chiqdilar”.

Ayollar nadomati bilan jangda zafar qozongan Kir vaqti yetib ayol jasorati tufayli mag'lub bo'lishidan bexabar edi.



Shunday qilib, 128 yil davom etgan Midiya hukmronligi barham topib, tarix maydoniga forslar chiqib keldilar. Bu chiqish Kir nomi bilan tarix solnomalariga bitib qo'yildi. O'sha davrning buyuk hukmronlaridan biri Lidiya shohi Krezni enggandan so'ng Kir butun Kichik Osiyoni o'ziga bo'ysundirdi. Asir shoh Krezni esa o'ziga bosh maslahatchi qilib tayinladi.

Yuqorida yunon muarrix Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan Kirning tug'ilishi, bolaligi va yoshligida bag'ishlangan voqealar muarrix tomonidan Kir asos solgan Ahmoniyar sulolasi shohlari haqidagi afsonalar asosida yozilgan.

Romul va Rem haqidagi afsonaga o'xshash bu afsona g'aroyib va go'zal bo'lgani uchun ham uni sizlarga hikoya qilib berdim. Aslida esa Kir Midiya shohi

Astiagga bo`yin eggan vassal hukmdorlardan biri bo`lgan va o`z qudratli davlatini, afsonada aytilganidek, Astiagni taxtdan qulatish bilan tuza boshlagan. Kir g`alabasi haqida eshitgan Kichik Osiyoning O`rta yer dengizi sohillarida yashagan yunon xalqlari – ioniyaliklar va eoliyaliklar forslar hukmdori huzuriga elchilarni jo`natib, oldin Midiya shohi Krezga qanday tobe bo`lgan bo`lsalar, ungayam o`sha shartlar asosida bo`ysunishlarini ma`lum qiladilar. Bu gapni eshitgan Kir elchilarga shunday deydi:

“Men sizlarga bir masal aytib beray. Bir kuni bir surnaychi sohilga o`tirib, sho`x bir kuyni chala boshlabdi. Bu sho`x ohangni eshitgan baliqlar qirg`oqqa sakrab chiqib o`ynashsa kerak, shunda men ularni osonlikcha tutib olaman, deb o`ylagan ekan bechora surnaychi. Ammo bundan ish chiqmasligiga ko`zi etgach, suvga to`r tashlab, bir ozdan so`ng anchagina baliqni tortib olibdi. Sho`rlik baliqlarni tipirchilashini ko`rib turgan surnaychi baliqlarga qarab: “Endi o`yinga tushishni bas qiling.

Oldin shunday sho`x kuy chalganimga qaramay, o`ynamagan, endi o`ynaysizlarmi?!” – degan ekan. Siz, yunonlar ham o`sha baliqlar qilig`ini qilyapsizlar. Men Krezni engmay turib, menga tobe bo`lishlaringni tilaganimda, gapimga kirmadilaring. Krezni mag`lub etganimdan so`ng, bosh egib keldilaring. Yo`q, endi men sizni qilich bilan tobe etaman”.

Kir tez orada butun Kichik Osiyoni o`ziga tobe etdi. Uning Bobilni zabt etgani haqidagi xabar “Osiyo podshohi tug`ildi” degan xabar kabi tarqaldi. Kir Bobilni eramizdan oldingi 539 yilda zabt etdi. Bobilning zabt etilishi bilan Ossiriya davlat sifatida barham topdi.

Bobil zabt etilgan sanadan roppa-rosa o`n yil o`tgach, Kir (*Kir, Kayxisrav*) o`zining och nazarini boshqa bir-ikki daryo – Sirdaryo va Amudaryo (*Araks*) oralig`idagi tuproqqa tikdi. Ammo o`sha olis yillarda Amudaryo bugungidek Orol dengiziga emas, balki Kaspiy dengiziga borib quyilardi. Bugungi qurib qolgan O`zboy daryosining o`zani o`sha qadimgi Araks (Amudaryo) yo`lidir.

2.2-§. “To`maris” afsonasini tahlil qilish orqali undagi asosiy obrazlarga ilyustratsiya ishlash

Amudaryo ortida massagetlar qabilasi istiqomat qilardi. “Bu massagetlar, — deb yozadi Gerodot, — ko`p sonli va jasur qabila edi. Ular Amudaryo daryo ortida, kunbotar tarafning sharqiy qismida yashaydilar. Ba`zilar ularni ham sak(*shaklar, skiflar-miloddan avv.1-ming yillik va milod boshlarida O`rta Osiyo, Qozog`iston va Sharqiy Turkiston va shimoli sharqiy tumanlarida yashab chorvadorlik, dehqonchilik va bog`dorchilik bilan shug`ullangan qabilalar uyushmasi*)lar qabilasidan deb bilishadi”.

Qadimiy massagetlar ikkiga bo`lingan: shimoliy saklar deb atalgan qismi, ya`ni bosh saklar Marg`iyona(*hozirgi Turmanistonning janubi-sharqi*)da shimoldan ko`chib kelgan bo`lsalar, ikkinchi qism saklar bugungi Murg`ob daryosi vohasida yashar va ular uchli qalpoq

kiyardilar. Ular
dehqonchilik bilan
shug`ullanmasdilar,
emishlarini ovchilik va mol
boqish bilan topardilar. Yoz
davomi qishga mevalar
quritardilar.

Massagetlar o`sha
zamonlarda sharob
nimaligini bilmasdilar. Ular
gulxan yoqib, unga
bizgacha nomi etib

kelmagan meva urug`larini tashlardilar, bu urug`lar olovda yonib, kishini mast etadigan is chiqarardi. Bu isni to`yib hidlagan massagetlar kayf qilib, o`yinga tushardilar. Ular o`zlari yashab turgan bepoyon dashtlarga yarasharli baland ovozda qo`shiq kuylardilar.



Massagetlar quyoshga sig'inardilar. Ular Tanais (*ya'ni Amudaryo*) daryosini muqaddas deb, ma'lum kunda bu daryoda cho'mildilar.

Bu voqealar miloddan oldingi 700 - yillar atrofida ro'y bergan. Qadimiy fors tosh ustunlaridagi bitiklar kimmeriyaliklarni Amudaryoning quyi oqimida yashagan "gimer", "gimmeri" deb ataluvchi saklar edi deb ma'lumot beradi Gerodot. "Tarix"da yunonlar bilan jang qilgan forslar tarafida turgan boxtariylar, saklar, so'g'diylar haqida yozar ekan, jumladan saklarni quyidagicha ta'riflaydi: "Saklar boshlariga uchli qalpoq, egnilariga charm ishton kiygan edilar. Qurollari esa sak kamoni va xanjaridan iborat edi. bundan tashqari ularning ikki damli jangovar oyboltalari ham bor edi. Bu qabilani amirgiy ("gimmeri", "gimer") saklar deb atardilar. Forslar barcha skiflarni sak deb nomlashadi". Gerodotning bu ma'lumoti biz uchun juda muhim. Demak, ishonch bilan aytish mumkinki, yunoniylar massagetlar mansub qabilalarini skiflar deb, forslar esa saklar deb atagan ekanlar.



Kir o'zining ochko'z nazarini massagetlar eriga tikkan yillarda bu qabila ustidan To'maris ismli malika hukmronlik qilardi. Malikaning eri o'n yilcha burun o'lgan edi. Uning yakkayu-yolg'iz o'g'li Sparganis massagetlar qo'shiniga boshchilik qilardi.

Massagetlar qo'shinida erkaklar bilan tengma-teng xotin-qizlar ham qatnashardilar. Ular qilichbozlik, ayniqsa massagetlar uchun asosiy qurol bo'lgan kamondan o'q uzishda erkaklardan

qolishmasdilar. Kir juda ko'p yurtlarni hiyla bilan jangu-jadalsiz egallab olgani uchun bu gal ham massagetlarga nayrang ishlatmoqchi bo'ldi. U malika To'maris huzuriga o'z elchilarini turli-tuman tortiqlar bilan jo'natdi. Elchilar kelib, sovg'alarni topshirdilar va buyuk shahanshoh Kir massagetlar malikasi To'marisni o'ziga xotinlikka so'rayotganini aytadilar.



Ammo, ham o'ktam, ham zakovatli malika forslar hukmdorining asl niyatini osongina payqagan edi. Shuning uchun ham u gapni cho'zib o'tirmay elchilarga rad javobini berib, ular keltirgan tortiqlarga qo'l tegizmay qaytarib jo'natdi. Elchilarni jo'natgan malika ertaga albatta urush bo'lajagini bilgani uchun ham Sparganisni va qabilaning hurmatli kishilarini huzuriga chorlab, kengash o'tkazdi.



Hiylasi ish bermaganidan alamzada Kir qo'shinini boshlab massagetlar yurtiga qarab otlandi. U eng avvalo Araks daryosidan o'tish uchun juda ko'p qayiq va sollar yasatdi, so'ng ularni bir safga tizib ko'prik yasashni buyurdi. Safarbarlik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan bezovta Kir qoshiga To'maris jo'natgan elchilar kelib, unga massagetlar malikasi so'zini etkazdilar. Malika To'maris Kirga qarata shunday degan edi: "Midiya va Fors shohi! Bu yo'lingdan qayt. Sen qurishga amr etgan bu ko'prik sening boshingga nelar keltirishini hali bilmaysan. Nahotki, sen nimani istasang, o'sha narsa bajo bo'lishiga ishonasan? Bu niyatingdan voz kech, o'z

yurtingda podshohlik qil. Bizning yurtimizga ko`z tikma. Sen, albatta, bu gaplarni nazar-pisand qilmasligingni ham bilaman. Sen tinchlikni emas, urushni istayapsan.

Agar massagetlar bilan jang qilmoqni istayotgan bo`lsang, ko`prik qurib ovora bo`lma. Biz senga daryodan bemalol, hech qanday to`siqsiz o`tish imkoniyatini beramiz. Biz daryo qirg`og`idan uch kunlik masofaga borib turamiz. Agar xohlasang, sen daryodan o`tib o`tirma, o`zing uch kunlik masofaga chekinib bizni kut. Biz daryodan o`tib olaylik.

Keyin jang qilamiz!”Malika To`marisning bu mardona so`zlari Kirni hayratga soldi, javob topolmay boshi qotdi. Keyin o`z sarkardalarini kengashga chorladi. Kengashda Kir To`maris so`zlarini hammaga aytib berdi. Ko`pchilik orqaga chekinib, massagetlar qo`shiniga daryodan o`tish imkoniyatini berish tarafdori bo`ldi. Bu taklif tarafdorlari “O`zimizga yaxshi tanish erda urushish oson, Amudaryo ortida bizni nimalar kutayotganini aniq bilmaymiz”, dedilar.

Ammo Kirning eng yaqin maslahatchisiga aylangan sobiq Lidiya shohi Krez ko`pchilikning fikriga qarshi chiqdi. “Shohim! – dedi Krez. – Shu paytgacha men sening sadoqatli xizmatkoring ekanimni isbotlab kelyapman. Bundan keyin ham shunday bo`ladi. Mening senga bo`lgan sadoqatim qutlug` xonadoningga nisbatan har qanday xavf-xatarni bartaraf etish yo`llarini qidirishga majbur etadi. Albatta, sen o`zingga boqiylicligingga va engilmas qo`shiningga bosh ekaningga ishonasan.

Shunday ekan, mening hozir aytmoqchi bo`lgan gaplarim foydasiz ekanini bilib turibman”, “Foydasiz bo`lsa ham o`z fikringni ayt!” – dedi Kir. “Shohim! – dedi Krez. – Agar sen ham o`zingni, ham askarlaringni foniyl bandalar ekanini tan olsang, anglagingki, taqdir hamisha bir kishiga kulib boqavermaydi. Bugun muzaffar qo`shin ertaga mag`lub va xarob bo`lishi mumkinligini angla. Mana shuning uchun ham sarkardalaring aytgan taklifga qarshiman!” “Ayt!” – dedi Kir. “Shohim! – deb yana davom etdi Krez. – Agar sen massagetlarni o`z erimizga o`tkazsang, sen juda katta xatoga yo`l qo`yasan. Mabodo jangda mag`lub bo`lsang, ular sening butun saltanatingni vayron qilishadi. Seni enggan taqdirda ham ular o`z

yurtlariga xotirjam qaytmaydilar, aksincha ortingdan izma-iz quvib boraveradilar. Qolaversa, shu narsani yodingda tutgin: bir paytlar otalarimizni qariyib o'ttiz yil davomida asoratda tutgan urushqoq skiflarni mana shu massagetlar jangu-jadalda engib kelganlar.

Mabodo jangda omad senga kulib boqsa, sen hech narsa yo`qotmaysan. Sen ularni qaerda mag`lub etganingning ahamiyati yo`q. Aksincha, sen massagetlarni tor-mor etsang, To`maris yurtiga bemalol kirib borishing mumkin. Nahotki, bir dashtlik xotinga yon bosgani shon-shavkatli Kirning, butun Osiyo hukmdorining izzat-nafsiga tegmasa?! “Yomon gapning qanoti bor”, deydilar. Mana shuning uchun ham massagetlar emas, biz daryodan kechib o`tishimiz shart.

Ular uch kunlik masofaga chekinishini hisobga olib, hech qanday to`siqsiz dashtliklar mamlakatiga kirib olamiz. Ularni qanday mag`lub etish chorasini esa allaqachonlar topib qo`yganman”. “Ayt!” – dedi Kir. “Shohim! – dedi Krez. – Bizga aniq ma`lumki, massagetlar tovushqon ovlab, uni o`tda pishirib eb yuradigan bir omi xalq. Ular dunyo lazzatlaridan bexabar: na sharob, na asl taomlar mazzasini biladilar.

Shuning uchun ham daryodan o`tib, dasht ichkarisiga kirgach, bir manzilda qo`nim topgach, sen lashkaring uchun asragan buqalarni so`yib, turli-tuman lazzatli taomlar tayyorlashni buyur. Yana shuni amr etginkim, mamlakatingdagi bor bo`sh ko`zalar ona yurtim – Lidiya uzumzorlarida etilgan hosildan tayyorlangan kuchli, chollarni go`dakka, yigitlarni tantiq qizga aylantirishga qodir sharob bilan to`ldirilsin. Bular hammasi taxt bo`lgach, butun qo`shin bilan yana daryoga qarab chekin.

Ozgina askarlaringni esa massagetlar bilan jangga chiqar. Ular birinchi to`qnashuvdayoq orqaga qarab qochadilar. Zafar mast qilgan massagetlar qo`shini, albatta, ularni quvadilar va albatta, o`sha biz tayyorlagan g`aroyib dasturxon ustidan chiqib qoladilar. Agar adashmasam, ular umrlarida ko`rmagan noz-ne`matlarni totmay o`tib ketishga bardosh berolmaydilar. Ana shunda ularni

bizning qilichimiz emas, o'zlarining nafslari mag'lub etadi. Massagetlarni fors qilichi emas, fors sharobi engadi. Agar so'zim amalga oshmasa, taqdir yana senga ulug' jasoratlar qilishingga imkon beradi. So'zimni tugatdim".Krezning so'zlari forslar hukmdoriga ma'qul tushdi.

U o'z sarkardalari taklifini rad etdi va shoshilinch ravishda malika To'marisga uning birinchi taklifini qabul qilganini, u daryodan bemalol kechib o'tishi uchun massagetlar uch kunlik masofaga turishlariga roziligini etkazishni buyurdi. Ozgina vaqt o'tmay ayg'oqchilar massagetlar qo'shini daryo sohilini tark etib, sahro ichkarisiga yo'l olganini shohga xabar berdilar. Kir bu xabarni eshitib, o'g'li Kambisni huzuriga chaqirdi. U o'g'liga o'zi massagetlar bilan urushni tugatgunga qadar mamlakatni boshqarib turishni va unga dono Krezni maslahatchi qilib tayinlaganini aytdi.

"Men hatto bu urushda mag'lub bo'lganimni eshitsang ham Krezning joniga qasd qilma. Uni asra!" – dedi Kir o'g'liga. Tez orada Kambis bilan Krez o'tirgan taxtiravonni ko'targan qullar karvoni saroy qo'riqchilari bilan birgalikda poytaxtga qarab yo'l oldi. Forslar qo'shini ertalabdan to quyosh botguncha daryoning uch-to'rt joyidan kechib o'tib, dasht ichkarisiga qarab yurdi. Askarlar bir kunlik masofani bosib, bir vohada to'xtab qo'nim topdilar.

So'ng Krez bergan maslahatga amal qilib, Kir qo'shini ko'targan changu-to'zon tinmasdan buqalarni bir boshdan so'yib, lazzatli taomlarni pishirib, yuzlar sharob quyilgan meshlarni va ko'zalarni tayyorlatdi. Barcha tadbirlar amalga oshgach, Kir bir necha ming askarni bu xush islar taratib turgan doshqozonlarning yonida qoldirib, o'zi qo'shinining asosiy qismi bilan yana Amudaryo sohiliga qarab chekindi. Doshqozonlar va sharobli meshlar yonida qoldirilgan askarlar Krez bergan maslaxatdan bexabar edilar, Kir asl maqsadini ularga aytmagan edi. Shuning uchun, ovchilar sherni jalb etish uchun oyog'ini tushovlab qo'ygan ot ahvoliga tushganlaridan bexabar bu askarlar Kir ketishi bilan xavf-xatarni unutib, bazmi-jamshid boshladilar.

Malika To'marisning o'n sakkiz yashar o'g'li Sparganis boshliq massagetlar qo'shinining ilg'or qismi Kir qoldirgan askarlarga to'satdan hujum qildi. Jang uzoq cho'zilmadi. Sarxush fors askarlarining jang qilmoqqa majollari qolmagan edi. Ularning asosiy qismi jang maydonida qoldi, qolganlari otlariga minib qochdilar. Ularning qochganini ko'rgan massagetlar dushmanni quvishga urinmadilar.

Ularni oson tushgan g'alaba aldagan edi. Massagetlar atayin qoldirilgan doshqozonlarni, umrlarida ko'rmagan sharob quyilgan mesh va ko'zalarni ko'rib, paysallamay bazm boshladilar. Ular ham tushovlangan ot ahvoliga tushganlaridan bexabar edilar. O'tkir sharob va xushta'm taomlar o'z kuchini ko'rsatdi. Quyosh og'may turib, massagatlarning hammasi dong qotib uxlab qoldilar. Bundan xabar topgan Kir shiddat bilan olg'a yurib g'aflatda yotgan sarmast massagatlarni o'rab oldi.

Dushmanlar qiyqirig'idan uyg'ongan massagetlar qilichlarini yalang'ochlab dushmanga qo'rqmasdan tashlandilar. Biroq, ular jang qiladigan ahvolda emas edilar. Ularning ko'pi qirib tashlandi, qolganlari asir olindilar. Sarmast Sparganis ham yarador holda qo'lga tushdi. Malika To'maris massagetlar qo'shini va o'g'lining ayanchli qismatidan xabardor bo'lgach, forslar qarorgohiga chopar jo'natdi.

Chopar forslar hukmdoriga malika To'marisning quyidagi so'zlarini etkazdi: "Qonxo'r Kir! Dushmanimni engdim deb g'ururlanma. Sen o'g'limni va massaget jangchilarini qilich bilan yuzma-yuz jangda emas, o'zlaringni ham noma'qul so'zlar va hatti-harakatlar qilishga majbur etadigan uzum suvi bilan es-hushidan ayirib mag'lub qilding. Mening senga maslahatim: o'g'lim Sparganisni qaytarib berda, massagatlarning bir qismini nobud etganingdan shodlanib, mamlakatim tuprog'ini iloji boricha tezroq tark et!

Agar maslahatimga quloq solmasang, massagatlarning oliy tangrisi Quyosh haqi ont ichaman: senga askarlaring qonini ichiraman!" G'alaba nashidasidan mast Kir dashtlik xotinning dag'dag'asi ustidan qah-qah otib kuldi-da, choparning

quloq-burnini kesib, yuziga qozon kuyasini surkab qaytarib jo`natdi. Ertasi kuni Kirga tutqun Sparganis o`zini zanjirdan xalos etishlarini so`raganini etkazdilar. Shoh darrov tutqunning bu talabini ado etishlarini va shitob bilan o`z huzuriga olib kelishlarini buyurdi. Kir oldidagi sharob to`la kosani hali bo`shatishga ulgurmay, tashqarida tuyqusdan g`alati shovin-suron ko`tarilganini sezdi.

“Nima balo, malika To`maris o`g`lini qutqaraman, deb bostirib keldimi?” – deb o`yladi shoh. Ammo, qo`rqib ketganini atrofida o`tirganlarga bildirmay, qarshisida raqs tushayotgan bobillik raqqosadan ko`zini uzmay jim o`tiraverdi. Uning rang-ro`yi oqarib ketgan edi. Qo`rqib ketganidan ko`zlari chaqchaygan xabash Kir qarshisiga kelib tiz cho`kdi va shohga tutqun Sparganis qo`l-oyog`i zanjirdan bo`shashi bilan to`satdan hamla qilib soqchilardan birining xanjarini tortib olib o`z joniga qasd qilganini aytdi. Kir chodirdan chiqib massagetlar sarkardasining jonsiz tanasiga bir muddat indamay tikilib turdi-da, uning ko`ksiga botgan xanjarni bir siltab tortib oldi.

So`ng yonida turgan soqchilarga ko`z tashlab chiqdi-da, Sparganisga o`z xanjarini tortib olishga imkon bergan askarga yaqinlashib, to`satdan ko`ksiga xanjar botirdi. Nima bo`lganini bilmay qolgan bechora askar bir muddat ko`ksiga botgan xanjarni sug`urib olishlarini kutgandek, chayqalib turdida, keyin birdan gursillab erga quladi. Kir miq etmay chodirga qaytib kirdi. “La`nati g`ofillar, — deb o`ylardi u, — dashtlik xotin o`g`li qo`limda tirik yursa, onasining ko`ksi alamu-iztirobdan kuyib, tuzukroq jang qilishga yaramasdi.

Hatto jangga chiqqandayam dushmanni engishni emas, o`g`lini qutqarishni o`ylardi. Mening har daqiqada o`g`lini qatl qilishim mumkinligini o`ylab adoyi-tamom bo`lardi. Endi-chi, endi?! Endi u yarador sherdan ham dahshatli. Endi u tirik o`g`lini qutqaraman deb emas, o`g`limning o`chini olaman, deb jang qiladi. Endi u o`limdan qo`rqmaydi. Oldin o`rtamizda hayot turgan bo`lsa, endi o`rtamizda o`lim turibdi. Endi qiyin bo`ladi...” Mana shu o`ylar quchog`ida turgan Kirga ichkariga otilib kirgan soqchilar boshlig`i ayg`oqchilar massagetlar qo`shini shiddat bilan shoh qo`nalg`asi tomon kelayotganlarini xabar qilganlarini etkazdi.

Kir qo'shini jangovar safga tizishni buyurdi. O'sha zahoti jangovar nog'oralar tovushi tep-tekis dasht sukunatini buzib yubordi. Shoh chodiri ustunlarida qo'nib turgan yovvoyi kabutarlar "gurr" etib osmonga ko'tarildilar. Kir sevimli otini keltirishni buyurdi.

Otiga mingach, qilichini yalang'ochlab saf tortgan bezovta askarlar oldiga chiqar ekan, olisda massagetlar qo'shini ko'targan changu-to'zonni ko'rdi. "Endi qiyin bo'ladi!" – deb o'yladi yana Kir. Forslar qo'shiniga yaqinlashgan massagetlar avval kamonlardan o'q uza boshladilar. O'qlarning qalinligidan forslar qo'shini ustini soya qoplagandek bo'ldi.

Forslar ham qarab turmay, kamonlarni ishga soldilar. Ammo kamon otishda forslarga qaraganda massagetlar usta edilar. Ularning bolasi olti-etti yoshidayoq elib borayotgan otda turib chumchuqni mo'ljalga olishini Kir midiyaliklardan eshitgan edi. Midiyaliklar esa bu gapni necha zamon ilgari skiflardan eshitgan edilar. Skiflarning o'zi kamon otishda butun Kichik Osiyo xalqlarini qoyil qoldirganlariga qaramay, bu ishda massagetlar ulardan mashhurroq ekanlarini aytgan ekanlar. Ularning shijoatini ko'rgan fors askarlari yuragida qo'rquv g'imirlay boshladi, dillardagi titroq qo'llariga o'tdi.

Nihoyat, ular mardona raqibga bas kelolmasliklarini angladilar va jang maydonini tashlab qocha boshladilar. Massagetlar ularni quvib daryoga etdilar. Daryodan birorta ham fors askari kechib o'tolmadi. Osiyoni necha yillardan beri zir titratib kelayotgan Kir ham jangda halok bo'ldi. Jang boshlangan joy bilan daryo oralig'ida forslarning ikki yuz minglik qo'shini nes-nobud bo'ldi. O'g'li Sparganis alami qiynagan malika To'maris amriga binoan janggohdagi murdalar orasidan forslar hukmdori jasadini qidirdilar.

To'lin oy chiqib, atrof sutdek oppoq edi. Tuni bilan qidirib, tongga yaqin Kirning jonsiz tanasini otda sudrab keltirdilar. Massagetlar malikasi ikki kun ilgari o'g'li boshliq askarlarni nobud etish uchun xizmat qilgan sharobdan bo'shagan meshlarning birini fors askarlari qoni bilan to'ldirishni buyurdi. Massagetlar

tangrisi Quyosh haqi ichgan qasamini o'tash uchun Kirning boshini tanasidan judo qilib qon to'la mesh ichiga tashlar ekan, g'azabdan hayqirdi: "Senga o'z askarlaring qonini ichiraman degandim, mana, so'zimning ustidan chiqdim. Ich endi, qonxo'r, to'yib-to'yib ich!"



Malika To'mariga Kirning boshini keltirdilar. Musavvir Piter Paul Rubens (Boston muzeyida saqlanadi)



Musavvir Andrea del Kastano (XV vek) qalamiga mansub To'maris portreti.

2.3§. 6-sinf tasviriyl san`at mashg`ulotida “Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash” mavzusini noan’anaviy uslubda o`qitish

“Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash” mavzusini o`tish jarayonida ilg`or pedagogik texnologyaning “Taqdimot” uslubidan foydalanildi. Ushbu tanlangan uslub yangi mavzuni mustahkamlashda qo`llanildi.

“Taqdimot” uslubi orqali o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, guruhdagi o`quvchilarning faolligiga, ularni o`z ishini har tomonlama puxta bajarishga erishiladi. O`quvchilarda tasviriyl san`at faniga bo`lgan qiziqish ortadi. O`qituvchi o`zini oldiga qo`ygan maqsadlariga erishadi.

6 – sinf 4-chorak 29-dars.

Mavzu : Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash

Darsning maqsadi :

Ta’limiy - o`quvchilarga tarixiy yoki afsonaviy mavzularda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish, ularga tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlashni o`rgatish

Tarbiyaviy – o`quvchilarda milliy qahramonlarimiz va ajdodlarimizga nisbatan mehr va hurmat hissini uyg`otish, ularga qahramonlarimiz hayot yo`lini namuna qilib ko`rsatish.

Rivojlantiruvchi – portret ishlash bilim va ko`nikmalarni shakllantirish. Tasviriyl malakalarini rivojlantirish.

Darsning shiori : “ *Biz barkamol, o`ktam avlodmiz, kelajagi buyuk davlatmiz!* “

Darsning uslubi: og`zaki bayon qilish, klaster metodi va amaliy ish bajarish, test

Darsning jihozi : ko`rgazmalar, slaydlar va multimedia vositalari, rassomlar ishlaridan namunalar.

Mashg`ulotning texnologik xaritasi

Mavzu	Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash
Maqsad va vazifalar	Maqsad: o`quvchilarga tarixiy yoki afsonaviy

	mavzularda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish, ularga tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlashni o'rgatish Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, o'quvchilarda milliy qahramonlarimiz va ajdodlarimizga nisbatan mehr va hurmat hissini uyg'otish, mavzu asosida bilim, ko'nikma larni shakllantirish va kengaytirish. Adabiy asarlar syujeti asosida portret ishlaganda tasviriy va mazmun mutanosibligiga erishish qobiliyatlarini rivojlantirish
O'quv jarayonining mazmuni	Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish, tarixiy yoki afsonaviy mavzularda ishlangan portretlardan namunalar namoyish etish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: ma'lumot, klaster, test Shakl: aqliy hujum, guruhlarda ishlash Vosita: tarqatma materiallar, slaydlar, fotolar, rag'batlantiruvchi kartochkalar Usul: noan'anaviy Nazorat: og'zaki, savol va javoblar, o'z-o'zini nazorat qilish Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: berilgan vaqt davomida yangi mavzuni barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, tasavvur va xotirasini mustahkamlash. O'quvchi: o'quvchilarga tarixiy yoki afsonaviy qahramonlarni tasvirlar orqali his qilishni o'rgatish,

	ularda ijodkorlik va badiiy didni o`stirish.
Kelgusi rejalar	O`qituvchi:</b> yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, pedagogik mahoratini oshirish, mavzuni bugungi kungi hayot bilan bog`lash O`quvchi:</b> mavzu bo`yicha mustaqil amaliy ishlashni o`rganadi.

Darsning blok chizmasi:

1	Tashqiliy qism a) Salomlashish b) Davomat aniqlanadi, c) O`quvchilarning darsga jalb qilish O`quvcilarni guruhlariga bo`lish	3
2	O`tilgan mavzu takrorlanib mustahkamlanadi;</b> o`tilgan mavzu yuzasidan aqliy hujum tashkil etiladi. Ko`rgazmali qurollar asosida savol – javob o`tkaziladi	5
3	Uyga berilgan vazifani tekshrish. O`quvchilarning bajargan uy vazifasini tekshirib, 5 balli tizim asosida baholash	10
4	Yangi mavzu : o`quvchilarga tarixiy yoki afsonaviy mavzularda ishlangan portretlar haqida tushuncha berish	5
5	Amaliy ish: mavzu asosida portret ishlash	17
6	Dars yakuni: test sinovlari orqali mavzuni mustahkamlash. Uyga vazifa: amaliy ishni davom ettirib yakunlab kelish.	5

Tashqiliy qism: salomlashib, navbatchi axboroti tinglanadi va davomat belgilanadi. O`quvchilarni darsga hozirlab, darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Sinf o`quvchilari **3 guruhga bo`linib** har bir guruhga nom beriladi.

1. Musavvirlar.

2. Qalamkashlar.
3. Bo'yoqchilar.

Har bir guruhga o'tilgan mavzulardan 2 tadan savol tarqatiladi.


1. *Illyustratsiya nima?*
2. *O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati ustalaridan kimlarni bilasiz?*
3. *Miniatura haqida gapirib bering*
4. *O'rol Tansiqboevning qanday asarlarini bilasiz?*
5. *Qanday naqsh turlarini bilasiz?*
6. *Kamoliddin Behzod hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?*

Guruh a'zolaridan bittadan vakil chiqib javoblarni umumlashtirilgan fikrini bayon qiladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash : o'quvchilarning uy ishlari tekshirilib, balli tizim asosida baholanadi. Vazifani to'g'ri bajargan o'quvchilarning ishlari namuna qilib ko'rsatilib rag'batlantiriladi. O'tilgan mavzuni yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchilarga ko'rsatmalar beriladi. Tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar orqali o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

Yangi mavzu bayoni: O'qituvchi: “ portret” – fransuzcha “portrait” so'zidan olingan bo'lib, bir va ikki, yoki bir guruh kishilarning chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretlar ma'lum syujet asosida maishiy, tarixiy, afsonaviy – mifologik yoki adabiy asar qahramoni obrazida bo'lishi mumkin

Rassomlarning ijodida avtoprtret keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi. Portretda odamlarning faqat boshi, ba'zan yelkasi va beligacha tasvirlanishi mumkin.bunday portretga byust portret deyiladi.



Portret o'z xarakteri jihatidan monumental, miniaturali, dastgohli, ishqiy va hajviy bo'ladi. Tarixiy janrda insoniyat tarixidagi muhim voqealar va qahramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom birorta tarixiy portretni tasvirlash uchun avvalo o'sha davrning ijtimoiy muhitini, insonlarning turmush tarzini anglab yetishishi kerak bo'ladi.

Dastlabki portretlar qadimgi Yunonistonda m. av. VII – V asrlarda yaratilgan. Portret janri o'rta asrlar sharq miniaturachilari va Yevropa rangtasvirchilari va haykaltaroshlari ijodida ham keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo Buanarrotti, XVIII-XIX asrlarda O. Renuar, P. Pikasso, I. Repin, XX asr o'zbek rassomlaridan A. Abdullayev, M. Nabiyeu, Ch. Axmarov, V. Kaydalovlar samarali ijod qildilar.

Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan hayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq minatyurachi rassomi Sulton Muhammad, rus rassomlaridan M. Vrubel, V. Vasnetsovlarni kiritish mumkin.

So`ngra multimedia usulida slaydlar namoyish qilinadi.



Jaioliddin Mangubendi, Rassom T.Quryozov chizgan.



M. Nabiyeu. “Amir Temur portreti”



A. Aliqulov. “Buyuk o`zbek ajdodlarimiz”.



Ostona shahridagi To`marisga o`rnatilgan haykal



O'qituvchi portret janrida o'quvchilarga ma'lumot berar ekan, inson qiyofasini tasvirlashda o'ziga xos tasvirlash qoidalariga e'tiborini qaratadi. Proportsiya, simmetriya, gavda –tana, qo'l, bosh, oyoq nisbatlariga diqqatni jalb qiladi



Insonlar qiyofasini ishlaganda proporsiya

- Inson tasvirini ishlashda gavdaning proporsional nisbiy tengligidagi o'ziga xoslik;
- Oddiydan murakkabga qarab tasvirlash;
- Odam boshining gavdaga nisbati 8/1;

- Yuz tuzilishidagi : ko`z, quloq, og`iz, burun proporsiyasi;
- Katta yosh va kichik yosh odamlar orasidagi farq

**O`qituvchi :** Bosh shakli go`yo asosiy to`rtta parallel – gorizontal yuzalar bilan kesishgandek: soch bilan qoplama boshlanish joyi, qosh usti yoylaridagi chiziqlar, burun va dahan asoslari. Ana shu yuzalarga perpendikulyar ravishda boshning tuxumsimon shaklida vertical yuzaga kesishadi, u yuza ustida ko`ndalang chiziq hosil qiladi. Bu vertikal yuza uni 2 teng qismga ajratadi, u hosil qilgan profil chiziq esa bosh tashqi ko`rinishini 2 simmetrik yarimga ajratadi. Gorizontal yuzalar esa boshni qismlarga ajratadi va soch qoplami, qosh usti yoylari, burun va dahan asoslarini hosil qiladi.

Doskada bosh, gavydaga oid xomaki, qoralama rasmlar chizib ko`rsatiladi.

Yangi mavzuni o`qituvchi tushuntirib bo`lgach, guruhlariga “Mustaqil ish” beradi. Har bir guruh sardori bittadan konvert tanlaydi. Konvert ichidagi savollar quyidagilardan iborat bo`ladi.

1 – guruhga: “To`maris” obrazini chizing va “To`maris” haqida so`zlab bering.

2 – guruhga: *Amir Temur portretini tasvirlang va Amir Temur hayoti haqida so`zlab bering*

3 – guruhga: To`maris obrazini tasvirlang va To`marisning qanday fazilatlari sizga yoqadi.

Guruhlar bajargan mustaqil ishlarini “Taqdimot” uslubidan foydalanib, sinf taxtasida namoyish etadilar. Taqdimot – har bir guruh o`z bajargan ishlarini barcha sinf o`quvchilariga namoyish qilib ta`riflab berish. Tarixiy va afsonaviy qahramonning portretini har tomonlama yoritib bergan guruh g`olib deb hisoblanadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash: O`qituvchi “ Aqliy hujum “ usulidan foydalanib, o`quvchilarga yangi mavzuga oid savollar beradi va test savollari tarqatiladi.

1. Portret so`zi nimani anglatadi ?

- a) Rasmni to'g'ri chizish.
- b) Naturaga qarab rasm chizish
- c) Ikki yoki bir kishining tasviri.

2. Avtoportret - bu :

- a) O'ziga qarab chizish.
- b) Do'stining rasmini chizish
- c) Tabiatni chizish.

3. Mashhur miniaturachi rassom , “ Sharq Rafaeli” tarixiy shaxslar

siymolarini yaratgan inson:

- a) Mahmud Muzahhib.
- b) Kamoliddin Behzod.
- c) Chori Ro'ziyev

4. Amir Temur haykali muallifi kim ?

- a) R. Ahmedov.
- b) Q. Basharov.
- c) I. Jabborov

O'quvchilarning javoblari umumlashtiriladi, g'olib guruh e'lon qilinadi. Amaliy ishni yaxshi bajargan, savollarga to'liq javob bergan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa: Amaliy ishni davom ettirib tugallab kelish. Mavzuga doir reproduksiya yig'ish.

Dars ishlanmasi bo'yicha qisqacha xulosa

6-sinflarda “ Tarixiy yoki afsonaviy mavzularda portret ishlash ” mavzusidagi dars ishlanmasida texnologik xarita, darsning maqsadi, vazifalari, dars o'tish bosqichlari yoritilgan. Ushbu mavzu o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun , “Aqliy hujum” , “Guruhlarda ishlash”, “Savol-javob”, “ Klaster” , “Kuzatish”, “Taqdimot” kabi metodlardan, tarqatma materiallar hamda didaktik o'yinlardan samarali foydalaniladi.

Bu esa, o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini osonlashtiradi.

Tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarning Vatanga, tarixiy va milliy merosga hurmatini oshirish, tarixiy qahramonlar bilan faxrlanish his-tuyg'ulari o'rgatiladi. Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, ushbu dars ishlanmani amaliyotda foydalanish uchun tavsiya qilish mumkin.





XULOSA

Respublikamizda jahon andozalariga mos kadrlar – bakalavr va magistrlar tayyorlashga kirishildi, chunki Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, «...chuqur bilimli, ma'naviy yuksak, yuqori malakali kadrlar etishtirmay turib, kelajagi buyuk davlat qurish mumkin emas ».

Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida respublikamiz o'qituvchilari oldiga yangi - yangi dolzarb vazifalarni qo'yildi. Shu vazifalarni bajarish yo'lida jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi, eng avvalo ta'lim tizimini isloh qilishni talab qiladi va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko'rsatdi.

Tasviriy san'at ta'lim-tarbiya ishlarida samarali natijalarga erishish uchun tasviriy san'at rassom-o'qituvchisi o'z ishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi shart. U bir necha murakkab ammo muhim quyidagi savollarga aniq javoblarni berishi lozim: Tasviriy san'atda o'qituvchiik jarayonning mohiyati nima? O'quvchilarga nimani va qanday o'qitish zarur? Ularda qanaqa shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kerak? Talabalarning o'quv va ijtimoiy faoliyatini qanday boshqarish mumkin? va hokazo.

1997 yilda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida Qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” oliy ta'lim xodimlari oldiga o'qitishning yangi shakl, mazmun va usullarini qo'llash vazifalarini qo'ymoqdalar. Bu esa talabalarni yetuk mutaxassis bo'lib etishishlari zarurligini taqozo etadi. Milliy kadrlar tayyorlash modelining bosh sub'ekti va naturai shaxs ekanligi “Kadrlar hamma narsani xal qiladi” shioriga mutanosibdir.

Kundan – kunga oshib borayotgan barcha tadqiqotlar ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganish va tasviriy san'at ta'lim - tarbiya jarayoniga tadbik qilish yo'llarini izlamoqda. Bitiruv malakaviy ishni xulosa qismida quyidagi maqsad va vazifalarga erishildi.

- grafikachi rassomlar ijodida afsonalar va tarixiy mavzularni aks etishi tahlil qilindi.

- “To'maris” afsonasi voqealarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini o'stirildi.

-“To`maris” afsonasini tahlil qilish orqali undagi asosiy obrazlarga ilyustratsiya ishlandi.

Bitiruv-malakaviy ishida ushbu mavzu iloji boricha amaliy va nazariy qismida har tomonlama chuqur mulohaza etishga harakat qilindi.

Kelajakdagi o`qituvchilik faoliyatimda ham bu sohadagi ijodiy ishimni davom qildirib, o`quvchilarni badiiy madaniyatini oshirishda bor kuchini ayamayman deb o`ylayman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1.O'zbekiston Respublikasi qonuni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Toshkent 1997y.
- 2.O'rta maxsus kasb hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'rta maxsus kasb hunar ta'limi markazi. Toshkent-2000y.
- 3.Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent Sharq nashriyoti 1997y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. -T., 1997y.
- 5.Abdullaev N.U. "San'at tarixi" Tom-1,Toshkent, o'qituvchi,1986 y.
6. Jo'raev U. Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T.1998y.
7. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. T.: 2009y.
8. "To'maris" - o'zbek xalq qahramonlik eposi (maqolalar to'plami). T., Fan, 1999y.
9. Mirkarim Osim . Karvon yo'llarida. Saylanma., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti." -T., 1987.y
10. Nabiev M.N, Azimova B. Rasm chizishni o'rgatish metodikasi T. 1976y
- 11.Oripov B.T. Darsning samaradorligini oshirish yo'llari T. 1983y.
12. Oydinov N. Ajdodlarimiz san'ati va etiqodi. T. 1992y.
13. Oydinov N. "O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar" T. 1996y.
14. Oydinov N. Rassom rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari. T. 1997y.
15. Saidov M.O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. T. Fan. 1969y.
16. Talinov N. Maktabda tasviriy san'at to'garagi, T. 1995 y.
17. Hasanov R.H. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. T. 1981y

Rus tilida.

1. Березиков. Е. Легенды и тайны Узбекистана. Ташкент. 1991
2. Бесчастнов Н.П. И.др “Живопись” Москва, “Владось”-2001
3. Беда Г.И. Основы изобразительной грамоты “Просвещение”-М., 1981
4. Дрезден. М. Мифология древнего Ирана. Москва. 1977.
5. Журналы "Юный художник". № 7, № 10 за 1985, № 2 за 1986, № 8 за 1990.
6. Каретникова И.Х, Степанян Н.А. Как смотрит и понимать произведения искусств. М, Знание, 1964.
7. Кирцер. Ю.М. Рисунок и живопись: -М., 1992
8. Мифы народов мира. В I - II томах. Энтс. Словарь. Москва. 1982.
9. Унковский А. А.. Живопись. Вопросы колорита.-М., 1974
10. Ростовцев Н.Н. “Рисунок. Живопись. Композиция. Москва 1989
11. Уилям Хогарт «Анализ красоты ». Искусство., 1987